

Alisher SA'DULLA

SHIROQ



TOSHKENT  
«O'ZBEKISTON»  
2013


UO'K: 821.512.133-3

KBK 84(50')

S-12

935.0905.

ISBN 978-9943-01-914-0



Alisher Navoiy  
nomidagi  
O'zbekiston MK

© •O'ZBEKİSTON• NMIU, 2013

© Alisher Sa'dulla, 2013

10 42316  
281

---

## **SO'ZBOSHI**

Nomi tarixiy manbalarda saqlanib qolgan ajdodimiz Shiroq yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda benazir namuna bo'l-guvchi eng yorqin siymolardan biridir. Ustoz adib Mirkarim Osim qalamiga mansub «Shiroq» hikoyasi ko'p bora qayta nashr etilib, maktab darsliklariga kiritilgani, bir necha avlod kitobxonlar tomonidan sevib va suyib o'qib kelinayotgani bir tarafdan adibning tarix voqeotlariga vobasta badiiy tasvir mahorati bo'lsa, yana bir tarafdan Shiroq jasorati har bir insonning yuragida olovlanib, doimo xotirlab turilganidadir.

Rus tilida ijod qilgan boshqird yozuvchisi Yovdat Ilyosov va qozoq yozuvchisi Bo'lot Jondorbekovlar ham Shiroq haqida qissalar yozishgan.

Mana bugun o'zbek adabiyotida dovyurak qahramonimiz haqida yana bir asar yaratildi.

Qissa muallifi Alisher Sa'dulla o'z asari har jihatdan qiziqarli chiqishiga intilgan.

Mirkarim Osimning asari asosan qadimgi yunon tarixchisi Poliyen yozib qoldirgan rivoyatni badiiylashtirib berish natijasi bo'lsa, A. Sa'dulla, qissa janri talabiga ko'ra, voqealar bo'lib o'tgan davrning nisbatan kengroq manzarasini tasvirlashga harakat qilgan. Qissada Shiroqning ajdodlari, oilasi, sak(shak) qabilalarining udumlari va hayot tarzi qiziqarli aks ettirilgan.

Asardagi muvaffaqiyatli chiqqan obrazlardan biri Shiroqning do'sti Zo'ro'zdir. U hammadan oldin saklar yurtiga bosib kelayotgan eroniylar lashkarini payqab, bu xabarni qabila boshliqlariga yetkazadi. Shiroq o'zi o'yagan mardona rejani – o'z hayoti evaziga tajovuzkor yovning harbiy qo'shinini jangsiz mag'lub etishni amalga oshirish uchun yo'l olganida, uning iltimosiga ko'ra Zo'ro'z qadrdon do'stining qulog-burnini kesib tashlaydi.

Xullas, qissa mutolaasi jarayonida, Shiroqning jasorati tasodifiy bir voqeа bo'lmay, aksincha, u mard va erksevar kishilar ko'p bo'lgan vatanparvar qabilada o'sib-ulg'aygani, bunday qabilani hatto katta lashkar bilan ham bo'ysundirish amri mahol ekani kitobxonga ayon bo'lib boradi.

A. Sa'dullaning «Shiroq» qissasi nashr etilgach, vatanparvarlik mavzusidagi mavjud badiiy asarlar orasida munosib o‘rin olib, barcha kitobxonlar tomonidan sevib o‘qiladi, deya ishonch bildirish mumkin.

*G‘ulom Karimiy*

---

## RIVOYAT

— Ulug' bobo, bizlar Yashiq Tengrisig'a sajda qilib, har bir ishimizda unga yukunib-sig'inamiz. Lekigin dunyoda Yashiqdin o'zga yaralmishlar ham ko'p-ku?! Yer bor, Qaliq<sup>1</sup> bor, yildizlar bor. Ularni kim yaratqon? O'zga Tengrimi?

— Bolaginam, Ochunda Tengri bir, yakka, yagona. Yer-suvni, tog'larni, Yalchiqmomoni<sup>2</sup>, osmonlarni, yildizlarni Tengri azal-azalda yaratib qo'yg'on. Ammo, hech birig'a jon, quvvat, harakat, tiriklik ato etmoqqa shoshmadi. Buning hikmatini o'zidin o'zga hech kim bilmas, bilolmas. So'g'in bir zamon kelib, o'tlig<sup>3</sup>, olovlig<sup>4</sup> bir Yashiqni samo ustig'a ilib qo'ydi. Yashiqning quvvati tezginchni<sup>5</sup> yurutdi. Ana shunda ko'klar yorishib, yalchiq tovlandi, yildizlar charag'ladi. Yerdagi o'simliklarga, hayvonlarga jon kirdi. Tuproq ustida mavjudot-u mahluqot ko'payisha boshladi. Yashiq yaralishi bilanoq shundoq-qina turk elining tepasig'a ilib qo'yilg'an sababidan bu tuproq hamma joydin ko'ra qaynog'roq bo'ldi. Tog'lar toblanib, metin

---

<sup>1</sup> Qaliq – osmon, ko'k.

<sup>2</sup> Yalchiqmomo – oymoma.

<sup>3</sup> Tezginch – charxi falak.

*bo'ldi. Toshlar kuyib, qum bo'lib sochildi. Shuning sababidan turkning yerida qumliklar ko'p. Keyin Yashiqning uchqunlari og'och-larga sachrab, ulardan o't chiqdi – olov paydo bo'ldi. El-uluslar ichinda Turk birinchi bo'lib izg'irin paytlar olovda isinishni, et-ozig'liqlarni pishirishni o'rgandi, so'g'in o'zga elatlarg'a o'rgatdi. Agar Tengri Yashiqni yaratmaganida Yer ham, osmon ham, turk ham, Turon ham, tiriklik ham qaror topmasdi. Ul Zotni Yashiq Tengrisi atab sig'inishimiz boisi shunda.*

## KO'CHKI

Tog'lar tepasida tun paytlari bahorning oxirida ham odamzod chiday olmaydigan darajada qattiq izg'irin bo'ladi. G'or ichida shamol bo'lmasa-da, havo shu qadar sovuq ediki, Zo'ro'zning tomirlarida xuddi qoni qotib qolganday, oyoq-qo'llari sovuqdan uvushib, igna sanchganday achisha boshladi. U sovuqda qotib o'lmaslik uchun tashqariga chiqib biroz yugurib, harakatlanmasa bo'lmasligini tushundi-yu, g'orning tuynugi tomon emakladi. G'orning xum og'ziday tor bo'g'zidan yelkasini chiqarib olish maqsadida biroz yon tomonga intilganida ko'zi qandaydir yog'duga tushganday bo'ldi. Tikilibroq qarasa pastda – tog' darasida minglab uchqunlar chaqnab, yonib-o'chib turibdi.

Voy-bo'! Gulxanlar-ku! Minglab gulxanlar. Xuddi yo'q joydan shahar paydo bo'lib qolganday (O'kuz bilan Yaksart oralig'idagi dasht-cho'l tomonlarda gavjum shaharlar yo'q-ku, ammo Zo'ro'z o'zining olis safarlari paytida yot o'lkalardagi shaharlarni ko'rib, avvallari hayratdan og'zi ochilib, keyinchalik ularga ko'nikib ham qolgandi) hamma yoqda olov shu'lalari o'ynab turibdi. Vo ajabo! Bular kim bo'ldi ekan? Bir necha soat ilgari tog'lar siquvidagi bu o'lik darada hech kim yo'q edi-ku. Yo biror qabila qishlovdan chiqib, o'z mazgiliga qaytyaptimikan? E, yo'q, chorvador qabilalarning yuztasi birlashib ko'chganida ham bunday katta darani to'ldira olmaydi...

«Mayli, bu yerda o'tirib fol ochgandan foyda yo'q. Yaxshisi cho'qqidan pastga tushib, ahvol-sharoitni ko'raman. Agar biror xatar asarini payqasam, sezdirmaygina g'oyib bo'lishning epini qilish mumkin. Baxtimdan bo'lib, bular tinch, beozor raiyyat bo'lsa, gulxanlarining bir chekkasida ozgina isinib, biror qaynoqroq luqma bilan siylashlarini iltimos qilib ko'rsam, ehtimol urvoq bilan bo'lsa ham mehmon qilarlar».

Zo'ro'z shu xayollar bilan pastga – daraga tomon sekin-asta tushib borar ekan, ilgarilari hech ham shu oxirgi oychalik qattiq mashaqqat chekmaganini o'yladi. Saklarning egar-jabduqlariga, charm-ko'n mahsulotlariga hamma

yerda talabgorlar ko‘p. Ammo, shimolliklar, ayniqsa, tog‘li xalqlar charm abzallarni nihoyatda qadrlashadi. Ilgarilari Zo‘ro‘z o‘n-o‘n besh kishilik karvon bilan bu tomonlarga bir necha marta kelib ketgan. Xazar dengizi bo‘ylarigacha borgan, Elbo‘rs tog‘larining narigi tomonida ham, bu tarafida ham ko‘p bor bo‘lgan. Oxirgi safarga esa karvon yig‘arlik yo‘ldosh topmasdan, uch nafar bo‘lib yo‘lga chiqishdi-yu, tog‘da tasodifan qo‘zg‘alib qolgan qor ko‘chkisidan qochib qolish uchun har tomonga tarqalishib, to‘s-to‘polonda bir-birlarini yo‘qotib qo‘yishdi. Mana endi Zo‘ro‘zning bir o‘zi tog‘ so‘qmoqlarida sarson-sargardon bo‘lib yuribdi. Ot-ulovidan ham, molidan ham, sheriklaridan ham ayrılib qoldi. Ko‘chkini uyg‘otgan qor bo‘ronining to‘s-to‘polonida oziq solingan xurjunlar izsiz yo‘qoldi. Qorlar orasidagi ikki kunlik besamar izlashlardan so‘ng u nom-nishonsiz ketgan sheriklarini tirik ko‘rishdan butkul umidini uzdi. Uloviga achindi: yo‘l azobi – go‘r azobi, degan naql har holda bekorga aytilmagan. Boshqa yuklarini o‘ylayotgani ham yo‘q. Zo‘ro‘z molga yuragi kuyadirgan yigit emas. Sog‘-omon eliga yetib borsa bas – qolgan hammasi o‘tkinchi.

## **OLG‘A, TULPORLARIM!**

Tog‘dara tomon tushib borish shunchalik og‘ir bo‘lishini Zo‘ro‘z xayoliga ham keltirgan emasdi. Ochlikdan va sovuqdan sillasi qurigan, badani qaltirab, muz va qor ustida sudralib borayotgan yolg‘iz yo‘lovchini kuch-quvvatining so‘nggi zarralari ham tobora jadalroq tark etib bormoqda. U hatto, tirik qolishiga ham ishonmay qo‘ydi. Lekin Vatan sog‘inchi, ahli oilasining diydori uni ajalga taslim bo‘lishdan saqlab turmoqda edi.

Zo‘ro‘z eng chekkadagi gulxan atrofida o‘tirgan guruh yoniga yaqinlashganida, bu kishilarning harbiylar ekanini ko‘rdi. Tish-tirnog‘igacha qurollanib olgan sarbozlar bir-birlari bilan qattiq-qattiq, baqirib-chaqirib, so‘kinib-so‘kinib suhbatlashib o‘tirishibdi. Ot go‘shtini yeb, sharob sipqorib, gulxan taftida tanalarini qizdirishmoqda. Lashkarboshilar o‘zlariga haddan tashqari ishonib yuborishganmi yoki bu yaqin tevarakda yashaydigan aholining tahdididan xavotirlari yo‘qmi — harqalay atrof-javonibda soqchilar unchalik ko‘p emasdi. Borlari ham yo mast bo‘lib ag‘anab yetibdi yoki sovuqning zabtidan hushyorligini yo‘qotgan. Lekin baribir ehti-yotkorroq bo‘lish lozim. Hozircha bularning ko‘zlariga ko‘rinmay turgan ma’qul. Chunki ba’zi lashkarlar yo‘lto‘sar qaroqchilardan

ham battarroq qonxo'r bo'lishini yo'lchi musofirlar yaxshi biladilar...

Zo'ro'z gulxan atrofidagilarning gapso'zlariga biroz qulq tutib turgach, bularning fors lashkari ekanini bildi. Chunki o'zlarini «ironiy» deb atovchi bu xalqning dala-dashtlariga ham, shaharlariga ham u bir necha bor karvon bilan qatnagan, tillarini salgina bo'lsayam tushunib qolgan... Askarlar har ikki gapning birida «turonzamin», «sakiston» degan so'zlarni takror-takror aytishmoqda. Vo darig', ular axir turklar yurti, ya'ni Zo'ro'zning Vataniga bosqin qilish haqida so'zlashishmoqda-ku! Tezroq ortga – Yaksart daryosi bo'ylariga qaytib, elatdoshlarini bu xavf-u falokatdan ogoh qilishi lozim.

Zo'ro'z uch-to'rt sarxush eroniy mast hol-da ag'anab yotgan gulxan oldigacha pusibgina bordi-da, yet elliklar o'zini tanib qolmasliklari uchun o'sha joyda qor ustiga tashlab qo'yilgan eski bir po'stakni ustiga yopib, gulxan yoniga cho'zildi. Shu alpoz yarim soatcha olov taftida amal-taqal qilib toblanib yotgach, badaniga sal iliqlik yugurib, ozgina tetiklashib olganday bo'ldi. Orada sarbozlarning yonlarida sochilib yotgan to'rvalardan ul-bul totimliq topib yeb, nafsi ham jinday orom topdi. «Bas, endi bu yerdan ketish kerak, hademay tun qaytib, lashkargohda jonlanish boshlanib qoladi. Endi bu yerda qolish xatarli».



Zo‘ro‘z yo‘l ozig‘i uchun uch-to‘rt bo‘lak ot go‘shtini, sovuqda badanini qizdirib borish maqsadida kichikroq bir meshdagi mayni to‘rvaga joylab, yana qorong‘ulik qa‘riga qaytdi. Endi bir amallab ikki-uchta otni yetaklab shu daradan chiqib olsa bas. Keyin shitob bilan yo‘l yursa, Qizilqumni chetlab borgan taqdirda ham, qirq-qirq besh kunda yurtiga yetib oladi.

Og‘ir safarlarda yillab mashaqqat chekib, jabrlar tortib ko‘zi pishgan hunarmand-savdogar yigit xuddi o‘zi o‘ylaganiday, bir soatga qolmay qarovsiz turgan otlardan to‘rttasini qoyalar ortiga bitta-bittadan yetaklab o‘tishning uddasidan chiqdi. Lekin bu ish unga oson bo‘lgani yo‘q. U yer-bu yerda kimlardir suhbatlashib o‘tiribdi; yana qay biridir sovuqdan junjikibmi, nimadandir xavotirlanibmi, yotgan joyidan kutilmaganda boshini ko‘tarib u yoq-bu yoqqa alanglab qo‘yadi; yana birovini zahar tang qilib, chekkaroqqa izg‘ib qoladi.

Zo‘ro‘zning baxtidan bo‘lib, lashkargoh tegrasiga kuzatuv mash’alalari yondirib qo‘yilmagan ekan. Lekin mo‘ljalidagi oxirgi otni yetaklab chiqayotganida ayg‘ir jonivor undan yotsiradimi yo bir nimarsadan cho‘chinqiradimi, har holda old oyoqlarini asabiy ko‘tarib tashlab, qattiq pishqirdi. Otning bezovtalanishi sal narida mudrab

o‘tirgan askarning e’tiborini tortib, u bir nimalar deb ming‘irlaganicha shu tomonga tez-tez yurib kela boshladи. Yaqinlashgani sayin esa ovozi balandlashib, Zo‘ro‘zga bir nimalar deb baqiraverdi. Zo‘ro‘z avvaliga qo‘rquv talvasasida yuragi ko‘ksidan tash-qariga otilib: «Ana o‘ldim, endi o‘ldim! Vahshiylar endi meni chavaqlab tashlashadi!» degan vahimada oyog‘i tortgan tomonga qarab qochmoqchi bo‘ldi. Ammo adaqlari<sup>1</sup> o‘ziga bo‘ysunmay, turgan joyida tosh qotdi. Eroniy ham deyarli yetib kelib qoldi. Zo‘ro‘z bir payt choraszizlikdan talmovsirab, nimalarnidir tu-shuntirganday harakat qilib, unga o‘zining oyog‘i tagini imlab ko‘rsatdi va bir nimalarni g‘o‘ldiray boshladи. Askar ham hech narsaga tushunmasdan, hayron bo‘lganicha, kela solib uning chorig‘i tomon engashdi. Zo‘ro‘z esa fursatdan foydalanib, o‘zini uning ustiga tashladi va eroniyning basharasini qorga bos-di. O‘ziyam askarning ho‘kizday kuchi bor ekan, ancha paytgacha qattiq qarshilik ko‘rsatib, hatto, uning qo‘lidan qutulib chiqib ketishiga bir baxya qoldi. Unisi jon achchi-g‘ida, bunisi esa joni o‘ziga shirinlik qilib, rosa pitirlashdi. Zo‘ro‘z raqibining ustiga bor og‘irligini tashlab olgani bois raqibini bir amallab yengishga muvaffaq bo‘ldi. G‘anim

---

<sup>1</sup> Adaq – oyoq

nafas ololmay hushidan ketdimi, yo bo‘g‘ilib jon taslim qildimi, hartugul tipirchilay-tipirchilay, nihoyat jim bo‘ldi...

«Ana endi olg‘a, tulporlarim!» Zo‘ro‘z otlarni yo‘lda almashtirib-almashtirib minganicha baholi qudrat yelib bora-bora, o‘ttiz yetti kun deganda Yaksart daryosi vodiysining etagiga yetib keldi. Bir necha kun dasht ichkarisiga kirib borishga ketdi. Nihoyat qabila boshliqlariga bosqinchi yog‘iyning shu tomon yopirilib kelayotgani xabarini yetkazdi. Shaklar har qanday kengashda ham o‘z oqsoqollari qabul qilgan qarorga bo‘ysunar edilar. Shu bois istilo xatari haqida darhol urug‘larning oqsoqollariga xabar berildi. Ular orasida, ayniqsa, O‘ngoy, Shakqut, Ochig‘larning mavqelari va hurmat-e‘tiborlari yuqori edi. Zodagonlar yig‘ilishiga har doimgiday Ochig‘ boshchilik qilib, o‘z hamyig‘inlariga murojaat qildi:

– Qadrli elatdoshlarim. Axomaniylar juda ko‘p vaqtlardan beri bizning yurtga ko‘z olaytirib kelmoqdalar. Bobolarimiz davrida ham, otalarimiz davrida ham ko‘p marta tuprog‘imizga bosqin uyushtirib, birda elimizni istilo etishga muvaffaq bo‘lsalar, birda mag‘lublik alamini totib, ortlariga noumid qaytganlar. Fors hukmdorlari orasida, ayniqsa, Doro eng vahshiy va qonxo‘r mustabid sifatida nom chiqargan. Podsho

Kamdziz Birinchi vafot etib, kohin Govmata hokimiyat tepasiga kelgach, eroniylarning turk elatlariga tajovuzlari biroz kamayib qolganday bo'luvdi. Ammo Doro tez orada uni qatl ettirib, taxtni o'zi egallab oldi. Shundan buyon o'z atrofidagi uzoq-yaqin el-yurtlarga bu qonxo'r hech tinchlik bermay kelyapti. Doroning lashkari katta va qudratli. Biz unga bas kela olmaymiz. Ilgari ham eroniylar bir necha bor Sug'd eliga bosqin uyuشتirib, anchagina el-ulusni qatli om qilganlar. Sug'dlar bizga yaqin qo'nshi<sup>1</sup> el bo'lganlari bois, biz ularga imkon qadar harbiy, moddiy ko'mak berib kelganmiz. Sug'dlar ham og'ir kunlarimizda bizdan o'z yordamlarini hech qachon ayagan emaslar. Hatto Sug'diyona bilan turk eli o'rtasida qandaydir mojaro yoki kelishmovchiliklar yuz bergen taqdirda ham umumiy dushmanga qarshi bиргаликда, yelkama-yelka turib jang qilganmiz. Lekin, sug'dlar hozirgi sharoitda bor kuchlarini bosqinchi ko'chmanchi qabilalarga qarshi kurashga tashlaganlar. Kuni kecha ular bizdan imkon qadar ko'proq jangchi jo'natishimizni so'rab, chopar yuborgandilar. Biz bugun-erta ularga ko'mak yubormoqchi bo'lib turgan paytimizda, qarangki, o'zimizning boshimizga balo-qazo yog'iladigan bo'lib qoldi. Forslar

---

<sup>1</sup> *Qo'nshi* – *qo'shni*.

agar O'kuz tarafidan kelganlarida sug'dlarga ro'baro' tushgan bo'lurdilar. U holda biz albatta askar yoshidagi erlarni to'plab, sug'dlarga yordam tariqasida yog'iyya qarshi yo'llasak bo'lardi. Ammo, eroniylar hozir bizga baqamti kelmoqdalar. Sug'diyona bu gal bizning ortimizda qolyapti. Forslar juda jangari ulus. Ularning lashkari xash-pash deguncha o'lkamizga yetib kelib, ko'z ochib-yumguncha xalqimizni qirib tashlaydi. Modomiki, ahvol shundoq ekan, yaxshisi tobelikni bo'ynimizga olib, Eron qo'shinini qarshiliksiz kutib olganimiz ma'qul emas-mikan? Xo'sh, siz bunga nima deysiz, muhtaram O'ngoy?

O'ngoy ham shu majlis davomida yurtining ozodligini emas, balki o'z mol-mulki-yu uyur-uyur yilqilarini, to'da-to'da tuyalarini o'ylab o'tirgan edi. Shu bois bu savolga javob berishga unchalik shoshilmadi. U hozir hujumga qarshi muhofazaga tayyorlanish yoki taslim bo'lish choralarining qay biri ma'qulroq ekani haqida emas, bu tadbirlarning qay birida yer-suvi-yu mol-mulkini saqlab qolishi mumkinligi to'g'-risida ko'proq qayg'urayotgandi.

— Menimcha, biz dushmanni quchoq ochib kutib olganimiz o'zimiz uchun foydaliroq, — dedi O'ngoy. — Doroning lashkarboshilariga tuzukroq hadya in'om etib, har qanday boj-xirojni to'lashga tayyor ekanimizni

Doroning  
Alisher Navoiy

sadoqatli qullari bo‘lish biz uchun sharaf ekanini izhor etamiz. Shoyadki, shu yo‘l bilan mol-holimizni asrab qolsak.

– Balki dasht ichkarisiga qarab chekin-ganimiz ma’quldir? – dedi oqsoqollardan yana biri Simar.

Unga urug‘boshi Ochig‘ shu zahotiyoy e’tiroz bildirdi:

– Birinchidan, qo‘shti qabilalar bizni butun el-elatimiz bilan o‘z yerlariga qo‘yishlari dargumon. Ikkinchidan esa, shuncha chorva-yu ko‘ch-ko‘ronimizni beto‘xtov, behordiq olib ketishga ham qurbimiz yetmaydi. Agar Doroga qarshilik ko‘rsatsak, o‘zimizni bittabitta qilichdan o‘tkazdirib, bor-budimizni xomtalash qiladi.

Urug‘boshilarining eng dovyuragi bo‘lgan Shakqut o‘z elatdoshlarini forslarga qarshi kurashishga, qo‘shti qabila va el-uluslarga chopar jo‘natib, kuchlarni birlashtirish hamda dushmanga qarshi birgalikda jang qilishga ularni ko‘ndirmoqlikka qanchalik undamasin, urug‘ og‘alarning ko‘pchiligi uning so‘ziga qulqoq tutmadi. Sakpar, O‘mir kabi ikki-uch nafar qabilaboshilarining bosqinchilarga qurolli qarshilik ko‘rsatish to‘g‘risidagi takliflari inobatga olinmadi. Shu bilan oqsoqollar Doroga xabarchi jo‘natib, shak qabilalari so‘zsiz va hech qanday shartlarsiz unga tobe ekanliklarini izhor etishga kelishdilar.

Lekin yurt ulug'laridan hech birlari xabarchi bo'lib borishga jur'at eta olmadi. Chunki hammalariga o'z jonlari shirin-da. Doroning naqadar zolim kimsa ekanligi barchalariga ma'lum. Ular Zo'ro'zdan eronliklarning necha kunda bu yerlarga yetib kelishi mumkinligini so'radilar.

— Ular yo'lda uchragan har bir maskanni talab, Yaksart bo'ylariga yetib kelgunlaricha yana qirq kunlar o'tadi, — dedi Zo'ro'z. — Lekin, qo'shining bir qismi yo'lda to'xtamay, betinim bostirib kelsa, yana uch-to'rt haftadan o'tib-o'tmay shu yerda bo'lishlari ham ehtimol. Men yo'lda betoblanib qolib, bir necha kecha-kunduz bir ulushda<sup>1</sup> to'xtadim. U yerda meni kishilar o'zlariga qo'ldosh bilib, dardimga davo qildilar. Harchand shoshmayin, o'kush<sup>2</sup> kunlarni yo'qotdim.

... Haqiqatan ham Zo'ro'z uncha-muncha dardga og'ir bo'lsa-da, o'sha kungi olishuvda eroniy askar jon talvasasida uning kaftini tishlab olib, buning asorati yo'lda bilindi. Odam tishining zahri yomon bo'lar ekan: ikki kunda Zo'ro'zning o'ng qo'li shishib ketib, g'ajilgan joyidan yiringlay boshladи. So'ng qattiq isitmalab, hushini yo'qotgan paytida, baxtidan bo'lib, yaqinroqdagi ulushlik ikki-

<sup>1</sup> *Ulush* – qishloq.

<sup>2</sup> *O'kush* – bir qancha.

uch yo'lovchi tarig'chilar<sup>1</sup> uni ko'rib qoldilari.

## YALAVOCH YILQICHI

Urug'boshilar yig'in o'tkazayotgan o'tovda To'nga ismli o'smir bola dastyorlik qilib, qabila ulug'lariga suv, sur go'sht, qurut, qimiz-qimron tashib turgandi. Qabila odatiga ko'ra o'g'il bolalar o'n bir yoshdan o'tgach urug' bolasi hisoblanar, ya'ni unga kim, qachon, qanday yumush buyurmasin, qulqoq qoqmay bajarib ketaverishi shart edi. Bu esa bolig'larni mehnatsevarlikka, qat'iy intizomga va, albatta, qiyinchiliklarga sabrli bo'lishga o'rgatardi...

Baribir bola emasmi, To'nga ham bosqin haqidagi xabarni, qabila boshliqlarining bahs-munozaralarini eshitib, taassurotlarini ichiga sig'dirolmay, yangiliklarni ota-onasiga so'zlab berish uchun xizmatini bir o'rtog'iga topshirdi-yu, uyiga tomon yugurdi. Mo'jazgina eski bir chodirning panasida Shiroq ismli otboqar ot abzallarini yamab-yasqab o'tirgan edi. O'tov yopishga kigizi yo'qligidanmi yo boshqa sababmi, boshpana uchun sur teridan chodir tutilgani bois, jazirama issiqda chodirning ichi odamni yondiraman deydi. Shu sabab Shiroq tashqaridan soya-

---

<sup>1</sup> Tarig'chi – dehqon.

salqin izlashga majbur bo'lgan edi. U o'g'lining hikoyasini eshitgach, bir muddat xayolga tolib turdi-da, keyin shoshganicha xonjamana – kengash o'tovi tomon oyoqyalang holida yugurib ketdi.

Shiroq urug'boshilarning huzurlariga kiringha ijozat so'radi va ularning barcha fikr-u tadbirlarini tasodifan eshitib qolganini, Doro podshohning huzuriga shak elidan xabarchi bo'lib borishga tayyor ekanini ma'lum qildi. Urug'boshilar bu borada ham bir-birlari bilan talay muddat tortishib oldilar: birovi yalavochlikka nochor cho'ponning yuborilishi Doroning qahrini keltiradi deb qo'rqlisa, boshqa birovi esa halol, mehnatsevar inson, benazir qam<sup>1</sup> bo'lmish bu yilqichi agar yo'lda biror falokatga uchrab o'lib ketsa yoxud Doroning dargohida qandaydir sabab bilan qatl etilsa, shunday beminnat xizmatchidan mahrum bo'lamiz, degan xavotirda edilar. Qolganlari esa ne bo'lganda ham qul bo'lib yashagandan ko'ra tik turib o'lmoqlikn ni afzal bilib, Doroning huzuriga xabarchi yuborish emas, balki unga qarshi qo'shin yo'llash fikrida hanuz qat'iy edilar. Nihoyat, ulus ulug'lari ko'pchilik ovoz bilan bir to'xtamga kelishib, Shiroqning elchi bo'lib borishiga roziliklarini bildirdilar. Shakqut va Tapug'soq kabi jasur

---

<sup>1</sup> *Qam* – tabib.

urug‘boshilar afsus bilan bosh chayqab, o‘z noroziliklarini bildirdilar. Xullas, Shiroqqa qabila molidan o‘n besh-yigirma kunga yetadigan oziq-ovqat, suv berishni buyurib, uning erta tongda yo‘lga tushishini amr etishdi. Shundan so‘ng Shiroq safarga tayyorgarlik ko‘rish uchun uyiga yo‘l oldi. Jamoa zaxirasidan safar uchun yaxshi bir ot, sur go‘sht, qoq non, jaziramada badanidagi suvni asrash uchun esa uyidan bir hovuch sho‘r qurut olib, yo‘l ozig‘ini xurjuniga joyladi. Agar odam cho‘lning jaziramasida suv ichganidan keyin biror tishlam sho‘r narsa yemasa, tanasidan suv qochib, tashnalikdan nobud bo‘lib ketishi hech gapmas. Qanchalik g‘alati tuyulmasin, yegan kishini chanqatadigan tuz kishi vujudini suvsizlanishdan asraydi. Umummoldan berilgan to‘rt dona toshqurut esa Shiroqning olis safariga urvoq ham bo‘lmasdi.

## VIDOLASHUV

Yarim tunda Shiroq xurjunni otga o‘ngarib, do‘sti Zo‘ro‘zni chaqirib, urug‘boshi Shakqutning uyiga jo‘nadi. Zo‘ro‘z bilan Shiroq bolalikdan do‘st bo‘lganliklari bois Zo‘ro‘z Shiroqning fe‘l-atvorini yaxshi bilar va shu tufayli bu ishga uning o‘zi talabgor bo‘lganligiga hech ham ishongisi kelmasdi.

Ishonmaslikning esa iloji yo‘q – hamma narsani Zo‘ro‘z o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib, o‘z quloglari bilan eshitdi. «Men jonimni xatarga qo‘yib shuncha mashaqqatlar bilan olis o‘lkalardan dushman daragini yetkazib kelsam-u, o‘z do‘stim yovning huzuriga bosh egib borsa», deya alam bilan o‘ylardi Zo‘ro‘z. U o‘z g‘azabini bir amallab ichiga yutdi-yu, Shiroqni Shakqutning chodirigacha kuzatib borishga rozilik berdi. «Bu – do‘stligimizning eng so‘nggi tuni bo‘ladi», deya xayolidan o‘tkazib qo‘ydi, yuragida cheksiz iztirob bilan. Shiroq ham o‘z qo‘ldoshining ko‘nglidan nimalar o‘tayotganini yaxshi anglab turardi. U mungli jilmaygan ko‘yi do‘stining yelkasiga qo‘lini qo‘yib o‘ziga qaratdi-da, qo‘ldoshining ko‘zlariga tikilganicha unga nimalarnidir so‘zlay boshladи...

Zo‘ro‘zning ko‘zlarida avvaliga hayrat ifodasi paydo bo‘ldi, so‘ng uning nigohida faxr aralash nadomat akslandi va ko‘z yoshlari ikki yuzini yuvib tusha boshлади. Ikki do‘st bir-birlarini qattiq quchgancha uzoq vaqt unsiz turib qoldilar.

Chodirida Sakpar va O‘mir bilan bugungi yig‘inning xoinona yakun topganini, o‘z mulohazalari ko‘pchilik urug‘boshilar tomonidan inobatga olinmaganini afsus-nadomat bilan muhokama etib o‘tirgan Shakqut bu ikki yigitni hayronlik bilan kutib oldi.

Ayniqsa, Shiroqni ko‘rishga aslo ko‘zi uchib turgani yo‘q ekani, qahrli qarashlaridan ko‘rinib turardi. Dushmanni qo‘lda quro bilan qarshilashga e’tiroz bildirgan qo‘rqoq yo‘lboshchilarning razilona qarorlari unga yuz bir alam keltirgan bo‘lsa, manavi otboqarning yov qarorgohiga borib, sadoqat izhor qilishga o‘z ixtiyori bilan yo‘l olish istagi yaraga tuz sepganday ming azob berdi.

Tashrifchilar xonadon egasidan ijozat olib, ichkari kirishdi. Ammo o‘tirishlariga ruxsat bo‘lmadi.

— Bu yerga nima uchun ikkovlashib kel-dilaring? Sen-chi, molboqar? Umummoldan oladiganingni olib, allaqachon yog‘iuning tovonini yalagani jo‘nab ketishing lozim edi-ku?! Yaloqxo‘r yalavoch bilan manim yarim tunda so‘ylashadirgan so‘zim yo‘q edi, chamasi?

Shiroq tik turgani holda so‘z boshladi:

— Muhtaram Bilgakishi<sup>1</sup>. Menga nafrat ko‘zi bilan boqishingiz noo‘rin. Men xoin emasman. Doroning huzuriga bosh egib, qo‘r-qoqlarning elchisi bo‘lib borish niyatim ham yo‘q. Agar men xabarchi sifatida o‘zimni tak-lif etmasam, urug‘ kattalari, qabila boshliqlari, albatta boshqa bir mute kimsani yalavochlikka jo‘natishlari tayin edi. Buyuk

<sup>1</sup> Donishmand odam (ulug‘larga qilinadigan mu-rojaat).

bir halokatning oldini olish uchun men ulardan avvalroq otni qamchilab qolishga qaror qildim. O‘ylab qo‘ygan rejamni siz ulug‘ kishilarga so‘zlab beraman. Faqat avval Zo‘ro‘z xanjarini qinidan sug‘urib, mening quloqlarimni va burnimni kesib tashlasin va o‘rtamizdagi bu suhbat ikki qo‘l barmog‘icha kunlar ichida shu o‘tovdan tashqari chiqmasin...

## BOSQINCHILAR QARORGOHIDA

...Fors lashkari dala-dashtlar orqali Sakistonga (eronliklar Turonni shunday atar edilar) – shaklar yurtiga ketib borar ekan, askarlar bu yo‘lda yuzlab chaqirim sayxonliklar duch kelaverishidan nolib, o‘nboshi va yuzboshilarga o‘z noroziliklarini bildira boshladilar. Chunki ularga katta-katta shaharlarning, boy-badavlat qishloqlarning behisob mol-mulklarini talon-taroj qilish va’dasi berilgan edi. Aslida Doro agar ikki daryo suvini ichadigan o‘lkaga Eron tog‘lari tarafdan, Qoraqum cho‘llari tarafdan bostirib borsa ko‘zlagan manziliga tezroq yetib borish va bir qancha elatlarning mol-mulkini qo‘lga kiritish imkonи bo‘lardiku-ya, lekin vazirlari, noiblari O‘kuz va Yaksart<sup>1</sup> o‘rtasidagi vohalar atrofida yastangan dasht-cho‘llarda adashib-uloqib nobud bo‘lib ketishdan cho‘chib, obo-

---

<sup>1</sup> O‘kuz va Yaksart – Amudaryo va Sirdaryo.

donchiligi nochorroq bo'lsa ham Elbo'rs o'rkachlariga yaqinroq tomondan – Xazar<sup>1</sup> dengizi sohillariga yaqinroq, tog‘-toshli, asosiy karvon yo'llaridan uncha uzoq bo'lмаган о'лкalar orqali o'tib borishni maslahat berdilar. Harbiy yo'boshlovchilari ham aynan shu yo'nalishni tanlashdi.

Tog‘lik xalqlar zotan yovvoyitabiat fe'lga ega raiyyatdir. Dunyo boyliklariga unchalik hushlari yo‘q: shu bugungi kunlari tinch o‘tsa, shu kun qorinlari to‘ysa, tevarak-atroflarida ortiqcha qo‘ni-qo‘snilar bo‘lmasa – kifoya. Uy-joy qurishga ham ular behafsala bo‘lishadi – tog‘larning bag‘rini o‘yib, g‘orlarda ham yashab ketaverishadi yoki yerto‘lalarda kunlarini ko‘rib yuraverishadi. Faqat imkonim borlarigina odam yollab tosh yo‘ndirib, bostirmali kulba qurdiradilar. Tog‘liklarning kulbalarida kunduzi chiroq yoqib ham ortiqcha lash-lush topolmaysiz. Shu bois bu safargi bosqin sarbozlar kutganicha ko‘z quvonarlik biror boylik keltirmadi.

Mana, tog‘li o‘lkalar ortda qolganiga ham ancha vaqt bo‘lib qoldi. Ammo, o‘lja tushumi hali ham o‘sha-o‘sha. Hozircha unda-bunda bir uchrab qoladigan mayda-mayda chorva podalaridan va qo‘y-echki otarlaridan boshqa o‘lja orttira olganlari yo‘q. Omadi kelganlari

---

<sup>1</sup> Xazar – Kaspiy dengizi.

ikki-uchta otli yoki bir-ikki qo'tosli bo'lib olib, hech bo'lmasa piyoda yurish azoblaridan qutuldilar. Ammo, har bir o'laning beshdan to'rt qismi Doroning ulushi ekanini hisobga olganda, bu o'ljalar ham aslida ularning qo'llarida omonatdan boshqa narsa emasdi. Doroning o'zi ham endi o'zini o'zi koyib, O'kuz bo'ylariga karvon jo'nattirib yurgan, cho'lni yaxshi o'zlashtirgan, yo'l-yo'lakay katta-katta, boy shaharlarga boshlab bora oladigan savdogarlardan uch-to'rt nafarini lashkariga safarbar qilib olmaganiga qattiq afsuslandi.

Qo'shin oldida borayotgan bo'linmaning ikki-uch nafar soqchisi hushyorlik bilan tevarak-atrofni kuzatib borar ekan, suvoriylardan biri so'qmoqda arang sudralib kelayotgan, og'zi-burni qon, holdan toyib, ko'zidan duv-duv yosh oqizayotgan yo'lovchini ko'rib goldi.

Shiroq og'riqning zo'ridan o'lar darajada dashtda ketib borar ekan, azob-uqubatlarni sal bo'lsa-da, unutish maqsadida o'zini nima bilandir chalg'itishni o'ylab, u yoq-bu yoqqa alahsib odimlardi. Shu payt ko'zi kichik tepacha tagida qip-qizil gullari shoxchalarida chaqnab turgan bir tup yantoqqa tushdi. Shu kichik yantoq butachasi beixtiyor otasini, onasini, bolalik yillarini uning yodiga soldi...

## QASAM

... Kammar otadan juda erta yetim qoldi. Uning otasi yaxshi tabib va mohir chavandoz edi. Shu bois chekka qabilalar Tangi Os vodiysiga bosqin uyushtirgan paytlar Alnor – Kammarning otasi birinchilardan bo‘lib urushga safarbar etilardi. U dushmanlar bilan sherdai olishar, shuningdek, turli giyohlardan o‘zi tayyorlagan qaynatma, damlama va malhamlar bilan yarador askarlarning jarohatlarini davolardi. Uning ajdodlaridan avlodlariga o‘tib kelayotgan asl kasbi podachilik bo‘lsa-da, biror yumushni «bilmayman» demasdi. Hamma ishga qo‘li chippa yopishib ketaverar edi. Jamoatning har bir yumushida, har bir hasharida jon-jahdi bilan, tirishib mehnat qilardi. Urug‘doshlari undan neni iltimos qilmasinlar, albatta, har birlariga ko‘mak ilkini uzatar edi. Lekin shunga qaramasdan, turmushlari ancha nochor, ba’zida bola-chaqasi bilan och uxlagan paytlari bo‘lardi. Qabilaning chorvasidan biror sigirni sog‘ib ichishni o‘ziga ep ko‘rmas, o‘zi uch-to‘rt qo‘y-qo‘zilik bo‘lib qolgan mahal mol-holini darrov muhtojlarga, beva-bechoralarga, yetim-yesirlarga tarqatib yuborardi. Uning o‘rnida har qanday boshqa odam bo‘lganida shu choqqacha hovuch-hovuch oltin-kumush, uyur-uyur yilqi, yaylov

to‘la qoramolning egasi bo‘lardi. Lekin, Alnor emas...

Bu oilada qadim-qadimdan beri otadan – o‘g‘ilga, bobodan – nabiraga o‘tib kelayotgan bir rivoyat bor. Bir zamonlar Alnorning uzoq bobo-bobokalonlari katta-katta boy-boyonlar, nufuzli aslzodalar bo‘lishgan ekan: har birlari elsuyar, saxiy, oliyhimmat, ulus xizmatiga qo‘shto‘llab qayishadigan kishilar bo‘lishgan. Avlodlar almashina-almashina, vaqt kelib naslning barcha boyliklari, mol-davlati O‘g‘log‘u otli yigitning qo‘lida to‘planibdi. O‘g‘log‘u bu mol-davlatni mas-haqqatli mehnat bilan topmagan, barcha yer-mulk unga ota-bobolaridan meros qolgan bo‘lsa-da, u boylikka qattiq ruju qo‘yib, topganini uyiga tashib, singan pichoq sopini ham odam zotidan yashirib, yerga ko‘mib saqlaydigan odat chiqaribdi. Xayr-u saxovatni unutib, muhtojlarning uzatgan qo‘llarini bo‘sh qaytara boshlabdi. Hatto qarindosh-urug‘lariga ham bir burda nonni ravo ko‘rmaydigan, oqib turgan ariq suvini ham birov larga hayf biladigan xasisga aylanibdi. Bora-bora shu darajaga yetibdiki, yerga to‘shalgan palosni o‘zidan ham qizg‘anib, uni teriga o‘rab yerga ko‘mib qo‘yib, tuproq ustida uxlaydigan bo‘libdi. Yoshi o‘ttizga yetib, O‘kuz suvi bo‘ylaridagi olis bir qabila kohinining qiziga uylanibdi. Bunda ham



uning maqsadi g‘arazli edi: taomil bo‘yicha kohinlar mehmondorchilikka, ayniqsa, quda tomonga kamdan kam boradilar, qizlarini katta mol-mulk bilan turmushga uzatadilar; O‘g‘log‘u yashaydigan mazgilga yo‘lning nihoyatda olisligi esa kelin tomondan qondosh-qarindoshlarning mehmon bo‘lib kelishlariga monelik qiladi...

Oradan yillar o‘tibdi. O‘g‘log‘uning hamma narsasi bor-u, ammo Yashiq Tengrisi<sup>1</sup> unga farzand bermabdi. Umrining qirq yili o‘tib, endi mol-davlatdan ham, oltin-kumushdan ham uning ko‘ngli sovibdi. Befarzandlik g‘amidan er-xotin o‘rtasida kunda-kunora chiqadigan janjallar ham tobora ko‘paya boribdi. Uning tushkunligi yelkasidan shu qadar og‘ir yuk bo‘lib bosibdiki, oxir-oqibat O‘g‘log‘uning tabiatи butkul o‘zgarib, birgina tirnoq uchun bor mol-mulkini sadaqa qilib yuborishga ham rozi bo‘lib qolibdi. Zurriyot duosi umidida odamlarga mol-holidan oz-oz bo‘lsa ham xayr-ehson qilishni boshlabdi. Shunday iztirobli kunlardan birida u bag‘rini zaxga berib yotgan ko‘yi uxlاب qolibdi va g‘alati bir tush ko‘ribdi. Tushida shaklar qabilasining piri, afsonaviy homiysi bo‘lmish Qurtg‘a Erbuz<sup>2</sup> ota O‘g‘log‘uning tepasiga kelib, arslon panjasiday ulkan, temirday

<sup>1</sup> *Yashiq Tengrisi* – Quyosh Xudosi.

<sup>2</sup> *Qurtg‘a Erbuz* – Keksa Qoplon (mard, jasur).

qattiq kafti bilan uning boshini mahkam siqibdi-da, so‘rabdi:

– Ha, saran<sup>1</sup> o‘g‘lon, davlatingdan quvonib, oltin-kumushga qonib, mol-mulkingga inonib yotibmisan?

– Yo‘q, ulug‘ ota. Bag‘rim qonga to‘lgan, mol-davlatdan ko‘nglim qolgan. Bittagina o‘g‘il yo qiz farzand uchun molimni ham, jonimni ham beradigan ahvoldaman. Endi menga birov bus-butun ochunni boricha qo‘shqo‘llab tutsa ham tatimaydi. Xotinim ham, o‘zim ham g‘amliq bu hayotdin to‘yib ketdimiz.

– Basharti Yashiq Tengrisi senga bir alp o‘g‘lonni hadya etsa, o‘rniga mol-joningni olsa, shu so‘zingdan qaytmasmiding?

– Qaytmasdim, ota, er so‘zim.

– Undoq bo‘lsa, eshit: ertalab uyqudan turi-shing bilan bor mol-mulkingni muhtojlarga, beva-bechoralarga tarqatasan. Xotining ikkovingiz bir yangi oy tug‘ilib, so‘g‘in o‘sha oy yana kattarib, to‘lg‘oq tutguniga qadar, ya’ni bir kumush toboq bo‘lib to‘ladigan oydin kechaga dovur non-suvdan o‘zlarizingizni tiyasiz. Kunda bir luqma oziqlik bilan bir qultum ichkulikka qanoat saqlaysiz. So‘ng minba’d boshqa davlat to‘plamagaysan. Buning evaziga shoyadki Tengri senga bir

---

<sup>1</sup> Saran – xasis, baxil.

farzand ato etsa. Ammo, buning bir sharti bor: bundin so'ng nasling toabad davom etib bormog'i uchun avlodlaringdan hech biri boylik ortidan quvmaydi. Qachonki birortasi bitta qo'ydan ortiq mol-hol orttirsa, o'sha joyda nasl-nasabing to'xtaydi. Bundan tash-qari, sening avlodningdan bo'lgan har bir eran qirq yoshga to'lar-to'lmas bosqinchи yog'iylarga qarshi jang-jadalda yoxud el-ulusning boshidan biror xavf-u halokatni aritishda halok bo'ladi. Ammo, undan zurriyot qolib boraveradi. Bu – sizlarning zotingiz uchun muqarrar qismatdir. Uyg'ongach, yaxshilab o'ylab ko'r: agar shu taqdirga rozi bo'lsang, ertadan nochorlikni va ulus xizmatini o'z bo'yningga olasan. Va bu shart vasiyat sifatida ajdodlaringdan avlodla-ringg'a o'tib bormog'i lozim. Qay zamon qasam biror-bir nasl davomchisi tomonidan buzilsa – o'sha paytdan boshlab urug'ing yo'qlikka ravona bo'ladi, aymog'laring qirilib bitadi. So'z tamom. To'ng'ichingg'a Ertug'an deb ism qo'y, kenjangg'a Alpto'g'on degan ismni qo'y, qolgan barcha zurriyot-laringg'a ne ism berish o'z ixtiyorlaringda...

O'g'log'uning avlodlari ikki tarmoqqa bo'linib, Ertug'an zurriyotlari bir urug' bo'ldi, Alpto'g'on farzandlaridan yana bir boshqa urug' tarqaldi. Ammo, orada va'da buzildimi yo boshqa bir sababmi, har holda

Ertug‘anning nasli kamayib-kamayib borib, bundan besh-olti avlodlar muqaddam izsiz yo‘q bo‘lib ketdi.

O‘sha zamonlardan boshlab O‘g‘log‘uning Alpto‘g‘ondan tarqalgan avlodlari Qurtg‘a Erbuz otaga berilgan ontga sodiq yashab kelmoqdalar.

...Janglarning birida Alnor og‘ir jarohatlangan sipohini qirg‘in maydonidan sudrab olib chiqayotgan paytida, ot ostida qolib, oyog‘i singan yog‘iy suvoriylaridan biri og‘riq azobiga chidolmasdan, oh-vohlab, yordam so‘rab yotganini ko‘rdi. U Alnorga qarab iltijo qilmoqda edi:

– Og‘akishi! Tuprog‘ingga meni majburlab askar etib haydab keltirdilar. Qabilangga hech bir yovlig‘im, xusumatim yo‘q. Tilimiz bir, suyimiz bir, Yashiq Tengrisi bizlarni og‘a-ini etib yaratmag‘onmu axir? Man bir qorabosh yumushchining bolasidurman. Mang‘a ko‘mak ber, jonimni omon saqla, ota-onam, elatdoshlarim bag‘riga qaytib ketay. So‘ng bu tomonlarga yovuz niyatda aslo qadam bosmagayman.

– Hozir, baz adashim<sup>1</sup>, – javob qildi unga Alnor. – Mana bu qo‘ldoshimga yordam ko‘rsatay, so‘ng sening joning qayg‘usini qilurmiz.

---

<sup>1</sup> *Baz adash* – musofir oshna.

Alnor o‘z erdoshini bexavotir joyga olib borib, tezda ortiga qaytdi va bosqinchi dushman askarining nochor ahvoliga rahmi kelib, uni ot ostidan sug‘urib oldi. Dasht butalaridan bir nechta shoxni kesib olib, yaradorning singan oyog‘ini taxtakachladi. So‘ng uni egasiz qolgan otlardan biriga ming azob bilan o‘tqizdi-da, unga dedi:

– Esa evingga<sup>1</sup> qayt, inim. Emди bul tomonlar kelsang faqat qo‘nog‘imiz bo‘lib kel. Yomon niyatda bu tuproqqa qadam bossang, u holda senga omonliq berilmas.

Bu vaqtida mag‘lubiyatga uchragan yov lashkarining qoldig‘i ortiga qaytib bo‘lgan, shaklar esa janggohdan o‘lja yig‘ish bilan band edi. Alnor kelgindining jilovidan qo‘lini olib, endi orqasiga o‘girilgan paytda nokas yog‘iy najotkorining inoyatiga xiyonat qilib, kuragiga xanjar sanchdi. Xanjarning tig‘i podachining yuragiga g‘irchillab kirdi. Sho‘rlik hatto «oh» deyishga ham ulgurmay, yerga quladi.

Avlod sayin Qurtg‘a Erbuzning bashorati amalga oshib kelmoqda.

... Kammar o‘shanda sakkiz-to‘qqiz yashar o‘t-olov bolakay edi. Otasidan so‘ng ro‘z-g‘orning barcha tashvishlari onasining boshiga tushib, dashtda o‘tin yig‘ib, bir toboq

---

<sup>1</sup> Ev – uy.

go‘jagami, bir taqsimcha ko‘mochgami, bir tishlam etmakkami<sup>1</sup>, ishqilib biror yegulikka ayirboshlab yurdi. Sho‘rlik ayolning kasbhunar bilan kun ko‘rishga imkon yo‘q, chunki bir paytlar qo‘shnining bolasini qashqir changalidan qutqaraman deb, o‘ng qo‘lining to‘rt barmog‘idan ayrilgandi. Qahraton qishning izg‘irinli kunlarida o‘pkasini sovuqqa oldirib, u ham tiriklikdan qaytish qildi.

Bir paytlar Alnorga yordamchi cho‘pon sifatida chorva boqib yurgan, keyinchalik qabilaning bosh podachisi vazifasiga tayinlangan Tegin og‘a Kammarning tarbiyasini o‘z zimmasiga oldi, unga podachilik yumushlaridan tashqari, giyohlarni taniy olish, ulardan shifobaxsh damlamalar va malhamlar, guvorish tayyorlash sirlarini, azg‘on, yantoq va boshqa chechak hamda butalar bilan turli kasalliklarni davolashning ilk saboqlarini o‘rgata boshladи. Chunki o‘zi Kammarning otasiga yordamchi bo‘lib yurgan paytlari ustozidan uncha-muncha narsalarni o‘rganib ulgurgandi.

Oradan yillar o‘tdi, Kammar o‘sib-ulг‘aydi, Tegin og‘adan so‘ng qabila podalarini mustaqil boqib yura-yura, mana yoshi qirqqa yaqinlashay deb qoldi. U hanuzgacha yolg‘iz, jamoa xizmatiga boshi bilan sho‘ng‘ib, shu

---

<sup>1</sup> *Etmak* – non.

paytgacha, hatto oila qurishga ham hafsla qilmabdi. Endi o'zidan surriyot qoldirish haqida o'ylamasa bo'lmaydi. Ba'zan bir go'dakni tizzasiga o'tqazib, isini to'yib-to'yib hidlashning xumori tutgan paytlarda o'zini qo'yishga joy topolmay qoladi.

Shaklar va umuman chorvachilik hamda yilqichilik bilan hayot kechiruvchi turk qabilalarning ko'pchiligi, asosan, sersuv vodiy va vohalardan bir qadar chekkada – qumliklar va dashtlar bag'rida hayot kechiradilar. Daryo bo'yida doimiy yashashga esa hunarmandchilikka mayl qo'ygan o'troq qabilalar va ziroatchi dehqon jamoalari yo'l bermaydilar, bir qarich yer uchun har qanday yo'l bilan ularga zarar-zahmat yetkazmasdan qo'ymaydilar. Odamzodning ko'zi shu qadar ochki, o'zining farovonlikda turmush kechirishi uchun bir parchagina yer kifoya qilgani holda, yashab turgan joyidan bir haftalik masofa narisidagi maydonlarni ham bir-biri bilan talashib, qondosh-qorindosh qabilalarning qonini to'kishga tayyor. Shu bois tabiatan tinchlikparvar elatlarning ko'pchiligi og'ir sharoitlarda bo'lsa-da, dashtlarning ichkarisida, qumliklar orasida osoyishta hayot kechirishni ma'qul ko'radilar.

## TURLAR UDUMI

Dasht hayoti nihoyatda og‘ir, cho‘ponning cho‘ldagi turmush tarzi juda mashaqqatli. Shu bois ham Kammar o‘ziga ana shu og‘irliliklarga chiday oladigan umr yo‘ldoshini topmog‘i zarur. Shaklar bilan yaqin urug‘dosh bo‘lgan Tur qabilasining qizlari bardoshli, sabr-qanoatli bo‘lishadi. Jangovarlik ruhi, yovga beayovlik xislati ham ularga xos. Kammar ham ana o‘shalardan birortasiga uylansamidi! Ammo, turlarning g‘alati bir odatlari bor. Ularning qabilalaridan biror qizga og‘iz solsang, avval o‘sha qabilaning pahlavoni bilan bel olishib, kurash tushishing shart. Agar uni yengsang – qiz seniki, lekin mag‘lub bo‘lsang, qabila kattalariga xizmatkor bo‘lib, bir necha yil turlarning xizmatida qolib ketasan. Shu shartlariga ko‘nsanggina ularning qizlariga talabgor bo‘lishing mumkin. Sababi, turlar o‘z qizlarining biror kuchsiz, zaif, irodasiz yoxud noshud bir kishiga xotin bo‘lib qolib, hayoti azob-uqubatda o‘tishiga yo‘l qo‘ymaydigan chapani odamlar bo‘lishadi. Ana shunaqa... Har holda Kammarning o‘z kuchiga shubhasi yo‘q. Kurashning hadisini olgan, chavandozlikda ham qabilasida unga teng keladigani kam. Yovvoyi buqaning ikki shoxi orasiga bir musht urib, ag‘dargan paytlari ko‘p bo‘lgan. Ammo,

tur bahodirlari ham agar sharoit taqozo etsa tog‘ning qoyasini qadoq qo‘llari bilan shartta uzib oladigan pahlavonlar bo‘lishadi.

Anchagina mashaqqatlar chekib bo‘lsa-da, Kammar Asla ismli qizni o‘z o‘toviga kelin qilib olib keldi...

Turlarning yerlariga borishdan oldin o‘z hududlariga bir qadar yaqinroq bo‘lgan yag‘mo, qorluq, chigil, igdish qabilalarining qizlarini ko‘zdan kechirdi, ammo yuragi nima uchundir turlar tomon talpinaverardi. Nihoyat, qat’iy bir qarorga kelib, kelin tanlashga jo‘nadi.

Uch-to‘rt kun qabilada mehmon bo‘lib, bahonada turli yumushlar bilan kuymانishib yurgan qizlarni kuzatdi. Urug‘ temirchisining Asla ismli qizi Kammarning yuragini bir jizillatib o‘tdi. Uning odobi husniga monand go‘zal, har bir ishda chaqqon, uy yumushlarida sarishta, uncha-muncha eran arang bajaradigan og‘ir emgaklarni ham hech qiyinchiliksiz bitirib ketaverar edi. Nihoyat, Kammar mana shu qizga og‘iz soldi. Taomilga ko‘ra shu jamoaning ikki-uch polvonlari bilan bel olishib, birini oson, birini qiyin bo‘lsa-da, mag‘lub etdi. Bu qabilada Kuvrut ismli bir polvon bo‘lib, u anchadan beri Asлага ko‘z tikib kelardi. Fe’li yomon, qo‘pol, shafqatsiz, xotin-qizlarga xuddi bir buyum kabi past nazar bilan qaraydigan bu odamni ko‘pchilik



yomon ko‘rar va o‘z qadrini bilgan kishilar bu kimsaga qiz berishni istamas edilar. Yaqin vaqtlardan beri u Aslani biror hiyla ishlatib o‘g‘irlab ketib bo‘lsa ham o‘ziniki qilish payiga tushib qolgandi. Boshqa hech bir yo‘l bilan unga erishishning iloji yo‘q. Qarasaki, shakning otboqari uning rejasini chippakka chiqarib, qizni kelin qilib olib ketadigan. Endi nima qilish kerak? Unga orqavoratdan bir zarar yetkazay desa, qilmishi fosh bo‘lib qolishidan qo‘rqadi: qabiladoshlari o‘z ichlaridan chiqqan shoqolni hech qachon kechirmaydilar. Halol kurashda kelgindini yengishga uning ko‘zi yetmaydi. Og‘irroq bir so‘z aytib, janjal chiqarishga esa, yuragi dov bermaydi. Axiri ayyorona bir tadbir qo‘llashga jazm qildi...

Kuvrut bilan Kammar o‘zaro kuch sinashadigan kun belgilandi. Qoq tush payti, quyosh tikkaga kelib, butun atrofga o‘t-olov ufurib turgan palla. Jamoaning kattasi-yu kichigi, erkagi-yu ayoli – butun qabila ulkan davra olib, ikki polvon maydon o‘rtasiga chiqdi. Beligacha yalang‘och polvonlar davrani bir-ikki aylangach, Kammar harifini dast ko‘tarish uchun uning belidan mahkam ushlaromoqchi bo‘ldi. Ammo, raqibning badani uning qo‘lidan suvilonday sirg‘alib chiqib ketdi. «Ana xolos! Bu ne sinoat? Qo‘lim shunchalik zaiflashib qoldimi? Uncha-mun-

cha ayg‘irni yag‘rinidan tutsam qimirlay olmasdan qolardi-ku, axir». Ikkinchı bel olishda ham shu narsa takrorlandı. Lekin bu safar Kammar qo‘liga moy yuqi inganini sezib, gap nimada ekanini tushundi. «Ha, yuraksiz! Menga kuchi yetmasligini bilib, halol kurashda yengishiga ko‘zi yetmasdan, badaniga o‘rkach yog‘ini surtib chiqibdi». Xom o‘rkach yog‘ini eritmasdan badanga surtganda u aytarlik yaltiramaydi va shu bois teridagi moyni sezish qiyin. Tana terlaganidan keyin esa badanga moy surtilgan-surtilmaganini atrofdagilar umuman payqamaydilar.

– Badaningga moy surtib, eranlikdan chiqibsan, – faqat Kuvrutning o‘ziga eshittirib, past ovozda dakki berdi Kammar.

– Menim qilmishimni qo‘ya tur, o‘zingdan so‘yla: emdi elatdoshlarimg‘a bu tadbirimni oshkor etishing eranliqdan bo‘ladimi, yokigim shikoyatchiliqdanmu? – turning basharasida razilona ishshayish paydo bo‘ldi.

– Qo‘rqma, men xotinchalishlarning sirini kishilarga yoymayman. Har mushkulning chorrasini o‘zim topishga bolaligimdan odat qilganman. Hali og‘zimdan shu dovurgacha nolish yokigim bir shikoyatliq so‘z chiqqan emas.

– Durust. Shu so‘zingda mahkam tur. Sen bugun manavi davradan sharmanda bo‘lib chig‘ib ketasan, Asla esa hademay manim evimga bekach kelib, yo‘q, bekach

emas – bo‘lun<sup>1</sup> kelib, kurashdan horig‘an damlarimda adaq-belimni o‘rkach moyi bilan uqalab-siypalab o‘tiradir.

– Shu bulg‘oq niyatingni esiz aytding. Emdi qahrim qo‘zidi. Bundan buyon singan belingni o‘rkach moyi bilan kunda-kunora o‘tachig‘a<sup>2</sup> silatadurg‘on bo‘lding!

Kammarning yuzidagi xotirjamlikni va ko‘zidagi g‘azab-nafratni ko‘rib, Kuvrutning nafasi ichiga tushib ketdi, oyoqlari o‘ziga bo‘ysunmay, qalt-qalt titramoqqa boshladi. Kammar yerga egilib, turobni o‘pdi, so‘ng ikki kaftiga tuproq to‘ldirib, raqibining yoniga borib, qo‘lidagi tuproq bilan uning belini mahkam qisdi. Badanidagi moy ustidan bosilgan tuproq Kuvrutni sirg‘alib chiqib ketishga qo‘ymadi. Kammar turni dast ko‘tar-di va yerga qattiq urdi. Umurtqa suyagining qirsillab singani davraning ortidagilarga ham eshitildi...

Kamtaringina to‘yni dashtliklar udumiga ko‘ra shu yerda – kelinning o‘tovida o‘tkaz-dilar. Temirchi ota qizi uchun sep qilib bergen qo‘y, tuya, ho‘kiz kabi jonliqlarni Kammar qabul qilmadi – qaynotasining o‘ziga qaytardi. Qorindosh-urug‘lardan atalgan boshqa to‘yonalarini ham beva-bechoralarga tar-qatdi. Ro‘zg‘or ishlari uchun tayyorlangan

<sup>1</sup> Bo‘lun – qul, cho‘ri.

<sup>2</sup> O‘tachi – tabib.

bir nechta temir buyumlarni esa mammunlik bilan to'rvasiga joyladi. Cho'l kishisi uchun temirning qadri oltindan karror-karror baland yuradi.

Kelin-kuyov bir markabchi tuyakash bilan yo'lning kirasini kelishib, ikkovlon bitta tuyaga mingashib, yo'lga tushdilar.

## YANTOQ GULI

Oradan ikki-ikki yarim yillar o'tib, Kammar bilan Asla bir o'g'llik bo'lishdi. Bolaga ism qo'yib berishi uchun chaqaloqni urug' kohini Sanzakning huzuriga olib keldilar.

Kohin chaqaloqning ko'zlariga uzoq tikilib turgach, shunday dedi:

– Bu bolaning ko'z qorachig'i uchqunday chaqnab turibdi. Yashiq va Olov Tengrisi unga olovliq qalb, o'tlig' yurak, alangaliq vujud ato etgan. Shuning boisidan men bu bolaga Shiroq deb ism qo'yaman. U Quyoshdan alanga olgan chiroq misoli xonadoningizni yoritib tursin. Xuddi bobosi Alnor kabi o'tyurak jangchi bo'lib ulg'a yasin.

Shaklarning ota-bobolaridan qolgan qiziq bir irimlari bor: agar oilada o'g'il farzand tug'ilsa, ajalni chalg'itish, falokatni aritish, ofat-balolardan asrash uchun chaqaloqqa bir nechta tumor-ism qo'yishadi. Shu bois

Sanzak bolaning tumor-ismlarini ham bir yo‘la ma’lum qildi:

– Go‘dakning ikkinchi oti Sherak bo‘lsin. Bilasizlar, tilimizda «sherak» degani – arslon bolasi degan ma’noni anglatadi. Vaqt kelib bizning sherbolamiz ham ulg‘ayib, devkelbat arslon bo‘ladi. Pahlavonimizning yana bir nomini esa Sheroq qo‘yamiz. Qali<sup>1</sup>, sherlarning mingtadan bittasigina sheroq, ya’ni oppoq rangli bo‘lib tug‘iladi. Oq arslonlarning esa hammasi qudratli va dovyurak jondorlar bo‘ladi. Bolachamizning uchala ismi shaklan bir-biriga yaqin, ammo ma’nosi turli xil. Demak, bari har qanday balo-ofatni daf qilishga qodir ismlar bo‘ladi...

– Bu xizmatingiz evaziga sizga qanday tuhfa keltirmog‘im kerak, muhtaram Sanzak?

– Yashiq va Olov Tengrisi haqqi-hurmati uchun nurli va taftli Shiroq degan nomga munosib hadya olib kelasan: olovday yonib turgan qip-qizil yantoq gullaridan bir tuyaning kallasi sig‘arlik xurjunni to‘ldirib terib bersang kifoya.

O, bu benihoya mashhaqqatl vazifa edi. Dashtliklarning asosiy ichimligi va taomlarining bir qismi – yantoq. To‘g‘ri, bu o‘lkaning har bir qadami yantooqzor. Ammo, yantoqlarning ko‘pchiligi pushtirang gullay-

---

<sup>1</sup> *Qali* – zero.

di. Qizil gulli yantoqlarning asosiy qismi faqatgina tog‘ yassiliklarida, namchil qumtepalar etagida, kichik-kichik do‘ngchalar tagida o‘sib, uning damlamasi nihoyatda xushbo‘y, xushta’m va shifobaxsh bo‘ladi. Chunki quyoshning ayovsiz tafti cho‘l yantoqlarining gul shirasini kuydirib, shifobaxshlik xususiyatidan mahrum etadi. Qovjiragan yantoq damlamasi va qaynatmasi anchayin taxir ta’m beradi. To‘yimliligi ham, albatta, shunga yarasha. Qizil gulli yantoqning mayda gulbargchalari esa tepalik va yassiliklarning kunbotar tomonidan terib olinadi. Ularning gulshirasi oftobning ayovsiz nurlaridan omon qoladi. Gulbargchalar terib olinib, bir necha kun salqin va shabadasi kuchsiz joyda quritiladi. U rangini va xushta’mligini saqlab qoladi. Keyin uni o’n yil saqlasangiz ham kechagina quritilganday yangigina bo‘lib turaveradi. Aytishlaricha, bunday damlama insonning umrini ko‘p yilga uzaytirarmish.

Bolaga ism qo‘yib bergenligi evaziga bitta tuyaning boshi sig‘adigan xurjunni uchqun misol mayda, olovrang kamyob gulchalarga to‘ldirish uchun Kammarga hech bo‘lmaganda uch yil muddat kerak bo‘lishini kohin Sanzak juda yaxshi bilardi. Lekin Kammarday mard, bir so‘zli inson bu tilakni hech bir e’tirozsiz bajarishiga ham uning ishonchi komil edi.

Kohin Sanzak nihoyatda sofdil va oqil kishi edi. U shuncha yantoq gulini o‘zi uchun so‘ragani yo‘q. Kammar uning amrini ado etib kelgunicha Sanzak yanayam keksayib, anchagina munkillab qolgan cholga aylangan bo‘ladi. U paytda buncha boylikning qari bir kohinga keragi ham bo‘lmaydi. Ha, aynan boylik. Chunki bir kichik xurjundagi qizil yantoq gulini bir qo‘l barmog‘icha miqdordagi tuyaga ayirboshlash mumkin. Sanzak o‘sha bir xurjun gulbargchalarni mana shu chaqaloqqa – mitti Shiroqqa meros qilib qoldiradi. Chunki bu go‘dakning kelajakda buyuk jasoratlar ko‘rsatuvchi qahramon bo‘lib ulg‘ayishini qari Sanzakning ko‘ngli sezib turibdi. Agar o‘sha kunlargacha o‘zi yetib bora olmagan taqdirda ham ishonchli ikki kishini vakil-guvoh tayinlab, gulbargchalarni tuyalarga ayirboshlab, Shiroq voyaga yetguniga qadar ularni parvarishlab turishlarini vasiyat qiladi. Ammo buni u hozir Kammarning o‘ziga bildirmaydi, albatta...

Kammar bosh irg‘ab, talabni albatta bajo etmoqlikka tayyorligini bildirdi. Zero, bu istak – rad etib bo‘lmaydigan buyruq ham edi.

Aslida, agar bolaga ism qo‘yishni qabila oqsoqollaridan so‘raganida-ku, ishi ancha oson kechgan bo‘lardi-ya, ammo mumkinmas. Ajodolar udumiga ko‘ra qabilada tug‘ilgan har bir go‘dakka, agar ota-onasining qadim

ajdodlari biylar naslidan bo'lsa, ismni urug' oqsoqollari qo'yadilar. Agar er-xotinning bobo-bobokalonlari nufuzli aslzodalardan o'tgan bo'lsa, ismni faqat qabila kohini qo'yishga haqli. Go'dakning ismi esa uning biror nishoni, unga bog'liq qandaydir hodisa yoxud irim-sirimga ko'ra qo'yiladi. Molmulki yo'qlar farzandlariga o'zлari yoki yaqin qarindoshlari ishtirokida nom beradilar... Ammo, Kammar bilan Aslaning ajdodlari palagi toza aslzodalardan o'tganini qabilada, urug'da har bir kishi biladi. Ularning farzandiga faqatgina Ulug' Sanzak ism tanlashi lozim....

Bu o'tmisht voqealarni Shiroqqa do'sti Zo'ro'zning otasi – keksa temirchi O'zg'ur so'zlab bergandi.

Haqiqatan ham, umri poyoniga yetib qolgan Sanzakning vasiyatiga ko'ra keyinchalik o'sha meros qirmizi gulbargchalar tuyalarga ayirboshlanib, Shiroq uchun asrab qo'yildi, vaqt kelib unga taqdim etildi. Yosh cho'pon taxminan yigirma bir yoki yigirma ikki yoshga to'lган yili yurtda qattiq qurg'oqchilik bo'lib, qahatchilikda butun boshli qabilalar ochlikdan qirilib keta boshladi. O'shanda Shiroq ham boshqa saxovatli vatandoshlari qatorida bor chorvasi-yu, teva podalarini ochlarga, muhtojlarga tarqatib yubordi. Ko'p o'tmay o'lkada ancha farovonlik tiklanib

qoldi, urug'doshlar nochorlik paytlarida biylar o'zlariga sarflagan mol-mulklarini qaytarib bera boshladilar. Chunki jamoa moli yana anchagina to'planib qolgan, ortiqcha zaxiraga ehtiyoj yo'q edi. Lekin, Shiroqning mol-mulkini olib kelganlarida u hatto, bitta qo'zichoq yoki uloqcha ham olmadi.

Shiroq bobokaloni O'g'log'uning Qurtg'a Erbuz otaga bergen ontini ado etmoqda edi.

Turkning qasami toshdan ham qattiq bo'ladi.

## QISMAT

... Hozir Shiroqning ko'z oldida tomchi-tomchi qonday sachrab turgan qip-qizil cho'g'day gulchalar uni kechmish kunlar tomon qaytadan yetaklab ketdi...

Taqdirning ishini qarangki, Shiroq ham yetti-sakkiz yoshlarida ota-onadan yetim qoldi. O'sha yili kech kuzning qop-qora bulutlarga burkangan rutubatli bir tunida allaqaysi shimoliy dashtlardan izg'ib kelgan allaqaysi bir qabilaning qaroqchi to'dalari shaklarning chorvasiga tajovuz qiladi. Podachilar ozchilik edilar. Shu bois qabila mulkini himoya qilish uchun ularning xotinlari ham qo'llariga qurol olib, talonchilarga qarshi ko'tarildilar. O'sha jangda cho'ponlarning ko'pchiligi, shular qatorida Shiroqning ota-

onasi ham tengsiz olishuvda vahshiylar tomonidan o'ldirildilar. Shiroq esa bolalik baxtidan bahramand bo'ladigan o'yinqaroq bola yoshida cho'ponga yordamchi bo'lib, kattalarning mashaqqatli hayotiga safarbar etildi.

Mana, Shiroq ham qirq yoshdan o'tib qoldi. Sakkiz-to'qqiz yoshda yetim qolish bu naslga ajdodlardan meros, peshonalariga Quyosh Tengrisi tomonidan bitib qo'yilgan qismat ekani unga yaxshi ma'lum. Endi uning er yetib ulgurmagan o'g'li – To'nga va sakkiz yoshli qizalog'i Yugdik ham yetim qoladigan bo'ldi. Xotini mesh tikishni, xurjun to'qishni yaxshi biladi, har holda bolalarni och-yalang'och qoldirmaydi; o'g'li ham ikki-uch yilda eranlar qatoriga kirib qoladi, lekin baribir erkaksiz oila but bo'lmaydi, beva ayolning turmushida qut bo'lmaydi. Ayniqsa, yarim ko'chmanchilikda o'tadigan hayotning mashaqqatlari xotin kishi uyoqda tursin, uncha-muncha erkakning ham qaddini bukib qo'yadi...

## TAFTISH

Soqchi – tutg'oqlar darhol Shiroqning oldiga ot yo'rttirib keldilar-u, uning kimligi, ne sababdan bu ko'yga tushgani va qayooqqa ketayotganini ham so'rab-surishtirib o'tirmay, bo'yniga arqon tashlagancha Doroning sar-

kardasi va xufiya ishlar bo‘yicha maslahatchisi  
Ranosbatning huzuriga sudrab ketdilar.

Ranosbat Shiroqni uzoq vaqt so‘roq qildi.

– Men oddiy bir otboqarman, – dedi Shiroq. – Qabila boshliqlarining uyur-uyur yil-qisini qishin-yozin tog‘ yaylovlarda, dasht o‘tloqlarida boqib yurardim. Bir kuni qattiq bo‘ron turib, yosh qulunlardan besh-oittitasini yo‘qotib qo‘ydim. Qum bo‘roni tugab, to ularni topguncha jonivorlarning bir nechtasi qashqir to‘dasiga duch kelib, yirtqichlarga yem bo‘libdi. Urug‘boshilarimiz esa bunga ishonmasdan, meni o‘g‘riga chiqarishdi va «muttahamning jazosi shu», deya quloq-burnimni kesib, o‘zimni qabiladan quvib chiqarishdi. Mana endi shu ahvolda boshim oqqan tomonga ketyapman. Bu ketishimda ikki-uch kunda yo ochlikdan, yo tashnalikdan yoki biror yirtqichning hamlasidan o‘lib ketaman deb o‘ylagandim. Xayriyatki, yo‘limda soqchilaringiz uchrab qolishdi.

– Qabilang boymi?

– Mol-mulkining hisobi yo‘q deyolmayman-u, ammo tevarak-atrofimizdag‘i uncha-muncha qabilalar bizlarga havas ham, hasad ham qilishadi.

– O‘zlarini yog‘iydan himoya qila olishadimi?

– Bizda lashkar saqlash odati yo‘q. Agar dushman bostirib keladigan bo‘lsa, mol-

holni haydab, tillo-kumushlarni xurjunga joylab, dala-dasht ichida yovdan qochib, tajovuzchilarning tinkasini quritib yurishni biz shaklar juda yaxshi o'zlashtirib olganmiz.

– Unday bo'lsa, o'sha qulokkesar qabiladoshlaringdan qasd olish imkoniga ega bo'ldim, deyaver. Bizni ularning izidan boshlab bora olasanmi?

– Yo'lni-ku, bilaman-a, ammo sizlarga xizmat qilishdan avval podsholaring bilan uch-rashib, sadoqatim evaziga oladigan mukoftimni kelishib olishim kerak. Chunki, o'zimnikilar boshimga it kunini solib turganda, begonalardan qanday marhamat kutish mumkin?

Ranosbat Shiroqni so'roq qilib bo'lgach, unga chorig'ini yechishni buyurdi. Aslida-ku, Shiroqning oyog'ida choriq degan matohning faqat nomigina qolgandi, xolos. Buni titilib ketgan bir bo'lak sur teri deyish to'g'riroq bo'lardi. Ranosbat, avval, Shiroqning oyoqlarini erinmasdan rosa sinchiklab ko'rikdan o'tkazdi: oyoq kaftlari qaynoq qumdan kuyib, qabarib ketgan; tovonlari yo'l azobidan shishib, taram-tars yorilgan, achchiq tikanlar qadalaverganidan qon-yiring aralash maddalab yetibdi – lekin yara-chaqa, jarohatlarining hammasi ham yangi emas. Demakkim, bu odam haqiqatan ham umrining ko'p qismini poda ortidan yurib, dala-dasht, cho'l-biyobon kezib o'tkazgan.

Keyin esa Doroning xufiyaboshisi Shiroqni qo'lini og'ziga tiqib, yegan-ichganini qayt qilishga majburladi. Lekin, Shiroq qancha urinmasin, oshqozonidan hech narsani qaytara olmadi – ko'rinish turibdiki, bu sahroyi sak kamida ikki kecha-kunduz davomida tuz ham totgan emas; taram-taram yorilgan lablari, quruqshab, oqarib ketgan tili ham uning tashnalikdan qattiq azob chekayotganini aytib turardi. Bu odam askar yoki jesus emasligi ayon. Darbadar sakistonlikning oftobdan kuyib ketgan yuzi, qovjiragan sochlari, qiyilib ketgan kuchli barmoqlari, tish-tirnoqlari – hamma-hammasi uning ko'p yillardan beri cho'ponlik bilan mashg'ul bo'lib kelayotganidan dalolat berib turibdi.

O'zining xos tekshiruvlari tugagach, Ranosbat huzuriga keksa tabibni – fors askarlarini davolab yurgan hindi hakimni chaqirtirdi. Tabib Shiroqning jarohatlarini yaxshilab ko'rikdan o'tkazgach, bunaqa yaralarning qonini tez to'xtatish va yiringlashining oldini olish uchun qonab turgan joyga pichoq yoki xanjar qizdirib bosish hamda kuydirilgan namat yoxud chorva junini qo'yib bog'lash lozimligini aytdi. Ammo, bu odamning jarohatiga faqatgina tappingin yoki tezakning sovigan kuli sepilgan, xolos. Shu sabab uning kesilgan qulog-burni qonab, tig' o'rnining bitishi qiyin bo'lib, yiringlab yotibdi.

Ranosbat biroz o‘ylanib turgach, Shiroq-ning jarohatini muolaja qilib, kerakli mal-hamlarni surtib, yaralarini bog‘lab qo‘yishni hindi tabibga buyurdi – tag‘in safar oxiriga yetmay turib yo‘l-po‘lda o‘lib-netib qolmasin!

## DORO HUZURIDA

Shiroq harbiy usullardan, xufiya hiylanayranglardan bexabar bo‘lsa-da, o‘zining aql-idroki, fahm-farosati bilan uncha-muncha falokatlarning oldini olish tadbirlarini ko‘rib qo‘ygandi: u biror haftalik yo‘lgacha do‘sti Zo‘ro‘zni o‘ziga hamroh qilib olib, yo‘lning yarmiga yaqinlashganlarida buyog‘iga yo‘ldosh siz yolg‘iz ketishini aytdi. Ostidagi otini, yo‘lga olgan ozig‘ini Zo‘ro‘zga berib, uni ortiga qaytarib yubordi. Manzilining davomiga esa ochlikdan va tashnalikdan nobud bo‘lmaslik uchungina yetadigan ozgina suv hamda bir-ikki bo‘lak qoq non olib qoldi. Qolgan yo‘l davomida kuniga bir necha qultum suv va kunora bir-ikki tishlamgina qoq non yoki toshqurut yeb bordi. Dushmanning ko‘ngliga shubha solmaslik maqsadida o‘zini chidab bo‘lmas darajada og‘ir azoblarga solib, chorig‘ini yechib yelkasiga ilib olgan ko‘yi quyoshning jahannamiy olovlarida qizib yotgan sahro qumlarida bir necha



kunlar davomida piyoda yo'l bosdi. Yalang oyoqlarining go'shtlari kabob bo'lib pishib ketdi. Ajdodlaridan meros tabiblik kasbidan ozmi-ko'pmi xabari bo'lgan Shiroq o'z jarohatlarini giyoh dorilar bilan ozroq bo'lsa-da, davolab olishi mumkin bo'lgani holda, hatto, shu ishni ham qilmadi. Holbuki, cho'l-u dashtda chorva, tuya yoki yilqi boqadigan har bir podachi yoxud chorvador tabiblikdan saboq olishga majbur – buni hayotning o'zi taqozo etadi. O'ylab qo'ygan tadbiri ishonchli chiqsin uchun Shiroq yaralarini yiringga oldirdi. Yog'iy uning yuzidagi azob ifodasini ko'rsin uchun, hatto og'riqni biroz bo'lsa-da, pasaytiradigan giyohsharbat tayyorlab ham ichmadi...

– Men so'zlarining ishondim, sak (ba'zi xalqlar o'zlarining til xususiyatlaridan kelib chiqqan holda «shak» so'zini «sak» shaklida talaffuz etganlar). Lekin aytib qo'yay, agar biror xatti-harakatingda nojo'yalik sezsam, seni qizib turgan qumga tiriklayin ko'mdirib yuboraman.

Shu gaplardan so'ng Ranosbatning buyrug'i bilan sarbozlar Shiroq haqida Doroga xabar yetkazdilar. Doro avval Ranosbatni chaqirtirib, u bilan ancha vaqt sirlashdi. Ikkovlari xoli so'zlashib bo'lganlaridan so'nggina Shiroqni taxt yoniga olib kelishlarini buyurdi.

Ranosbat bir paytlar Eron lashkarida oddiy tingchi<sup>1</sup> sifatida xizmat qilgan. Keyinchalik maxfiy ishlar bo'yicha o'z salohiyatini ko'rsatib, podshoning bosh xufiyaboshisi darajasigacha ko'tarildi. O'z jasorati, shijotati tufayli vaqtি kelib lashkarboshi etib tayinlandi. Lekin xufiyachilik borasida qo'shin ichida unga teng keladigan odam yo'q ekani bois, bosh xufiyachi lavozimi ham uning o'zida qoldirildi. Shuning uchun Doro Ranosbatning fikr-mulohazalariga qulqut tutib, harbiy ishlarda doimo u bilan maslahatlashardi.

Shiroqning hikoyasini tinglab bo'lgach, podsho uning qanday istagi borligini so'radi.

— Men sizlarni o'z yurtimga boshlab boraman, — dedi Shiroq. — Lekin bir shartim bor. Menga azob bergen urug'boshilarni mol-mulki bilan o'zimning ixtiyorimga topshirasizlar. Ularning jazosini o'zim berib qo'yaman. Mol-mulkular esa tortgan sitamlarimning evaziga menga badal bo'ladi.

— Bo'pti, roziman, — dedi Doro, hatto o'ylab ham o'tirmasdan. — O'sha yerga bizni boshlab olib borsang bas. Istagan ishingni qilish ixtiyorini o'zingga berib qo'yaman. Keyin qo'shinimdagи xohlagan yuzlikka yuzboshi bo'lasan.

---

<sup>1</sup> *Tingchi* – ayg'oqchi, xufiyachi.

Ichida esa, shaklarni mahv etishlari bilanoq bu takabbur sotqin va badnafs otboqarni o‘z qabiladoshlarining ko‘z oldida sharmandali qatl ettirishni o‘ylab qo‘ydi.

Doro o‘z lashkarboshilarini zudlik bilan harbiy kengashga yig‘ib, Shiroqni ham mashvaratga chaqirtirdi. Kengashda Shiroqni uzoq vaqt so‘roqqa tutib, shaklarning soni, kuchlari, mulklari, mol-hollari, boyliklari, yashash sharoitlari, turmush tarzlari, atrof-muhitning xususiyatlari, yer-suvlari haqida obdan ijikilab surishtirishdi.

– Hozir qabiladoshlarim daryo bo‘yidagi yaylovda muvaqqat mazgilni makon tutishgan. Ammo, ketayotgan yo‘nalishingiz bo‘ylab to‘g‘ri yo‘l bosib borilsa, bir-ikki kunlardan keyin o‘troq aholi yashaydigan hududlar boshlanadi. Dehqonlar va vodiyda qishlovchi chorvadorlar esa sizning lashkaringizni ko‘rishlari bilanoq yon-atrofdagi barcha qo‘snilarga xabarchi jo‘natadilar. Mening qabiladoshlarim ham bosqinchi kelgindilarning daragini eshitganlari zahoti dasht ichkarisi-dagi kichik bir vohaga tomon ko‘tarilib, o‘sha joydan panoh topishadi. U yer tez yurilganda Yaksart daryosi bo‘ylaridan uch-to‘rt kunlik yo‘l. Hozir biz turgan maskandan esa nari borsa yetti kunlik masofa. Siz biror ellik-oltmis kishilik ilg‘or bo‘linmangizga shu yo‘l bilan boraverishni buyurishingiz lozim. Yerlik

qabilalar ularni ko'rib, vahimaga tushishadi va cho'l ichkarisiga tomon chekina boshlashadi. Biz esa mening zulmkorlarimni naq suvloq vohaning o'zida bosamiz. Agar jadal yetib bormasak, vohadan ot-tuyalarni sug'orib, suv g'amlab olgach, quduqlarni ko'mib tashlab, cho'lga yanada ichkariroq kirib ketishlari ham mumkin. Shu bois hoziroq yo'lga tushib, ularning oldilaridan to'sib chiqqanimiz yoki yaxshisi, kutilmaganda suvloqning o'zida kutib olganimiz ma'qul, – dedi Shiroq.

– Agar voha ular uchun uch-to'rt kunlik, biz uchun esa yetti kunlik masofa bo'lsa, qandoq qilib ularning oldidan to'sib chiqamiz? Sen bizni mazax qilyapsanmi, sak? – so'radi Doro.

– Buning sababi oddiy, – javob berdi Shiroq. – Men sizga «tez yurilganda», – deb aytdim. Ular avval bir-ikki kun safarga tayyorgarlik ko'rishadi. Bundan tashqari jamiki mol-hol, lash-lush, bola-chaqa-yu xotin-xalajni ergashtirib, tez yurishning iloji yo'q. Yo'lda hordiq olib, dashtda chorvani o'tlatib borish ham ancha vaqt ni oladi. Sizning sarbozlaringiz esa uchqur otlarida ikki kunlik yo'lni bir kecha-kunduzda bosib o'tishga qodirlar.

– Gaplaring ancha jo'yali, sak, – dedi Doro biroz o'ylanib turgach. – Sakning odatini sak bilmay, kim ham bilardi. – Shu gaplarni ayt-

di-yu, o‘zining topqirligidan o‘zi zavqlanib, rosa miriqib kului. Forslarda «sak» (ayrim shevalarida – «sag») so‘zi «it» degan ma’noni anglatib, Doro hozir o‘zicha so‘z o‘yini qilgan edi. – Xo‘sish, seningcha, vohadagi bizga itoat qilishdan bosh tortib qochishga uringuvchi sarkashlarning jazosini berib qo‘yish uchun Sakistonga qancha lashkar bilan yo‘l olganimiz ma’qul?

– Menimcha, bu yerda ikki yuz-uch yuz askarni qoldirib, qolgan lashkarni jangga yo‘llasangiz ma’qul ish bo‘ladi. Chunki, keyin ortga qaytmasdan, qo‘sni elatlarni ham bosib, olg‘a ketaverasiz. Bu yerda qolgan askarlar esa shu yerdagi to‘plagan o‘ljalariningizni, bosqinlarda orttirgan yuklaringizni va boshqa ashyolarni ot-aravalarga ortib, mamlakatingizga qaytib, saroyingizga eltib bersalar, xazinangizning kam-ko‘sti to‘lib turadi. Yo‘lga ko‘pi bilan yetti kunlik suv va oziq-ovqat olinsa kifoya. Vohada suv ham, yegulik ham bisyor. Safar uchun esa qanchalik kam yuk olinsa, shunchalik tez manzilga yetib boriladi.

Shiroqning bu fikri Doroga ham, uning lashkarboshilariga ham ma’qul keldi. Oson o‘lja va tekin boylik ularning ko‘zlarini ko‘r qilib, aqllarini o‘tmaslashtirib qo‘ygan edi. Shunday qilib, lashkar yengilgina aslahalanib, olti-yetti kunlik oziqani otlarga ortib, yo‘lga tushdi. Fors askarlari yo‘l-yo‘lakay Shiroqni masxaralab, kamsitib borardilar.

– Yo‘l boshlovchilikka hamma hayvonlar ichida «sak»lar juda munosib-da, – dedi bir sipohiy sherigiga Shiroqni ko‘rsatib.

– Nimasini aytasan, – uning gapini ilib ketdi boshqasi. – Lekin, bir narsaga hayronman: hamma xalqlarda sakning qulog-dumini kesishsa, turklar sakning tumshug‘ini ham qirqib tashlashar ekan. Bunaqada yo‘l boshlovchi sak qanday qilib is oladi-yu, qanday qilib iz oladi? Vah-hah-ha-a-a-a...

## JASORAT VA HALOKAT

Safarning ikkinchi kunidan cho‘llar boshlanib, lashkar qumliklar orasiga tobora ichkariroq kirib bora boshladи. Cho‘lda kun hammayoqni beayov qizdirgandan qizdirib borar, qaynoq havo o‘pkalarni xuddi eritilgan qo‘rg‘oshin quygan kabi kuydirishni boshlagandi. Podsho Doro, hatto tuya ustiga qo‘ndirilgan soyabonli taxtiravon ustida ham jazirama issiqdan lohas bo‘lib, huzuriga Shiroqni yetkazib kelishlarini buyurdi.

– Menga qara, sak, – dedi yerda qo‘lini qovushtirib uning amrini kutib turgan Shiroqning yelkasiga etigi bilan niqtab. – Isming nimaydi, Charog‘midi? Tavba! Nomlaring ham cho‘llaringga o‘xshab qaynoq-a! Bu Qizilqum deganlaring odamni kuydirib qovuraman deyapti-yu! Senlarning odamla-

ring bunaqa jaziramada cho'l orqali yo'lga chiqsa, qanday qilib jon saqlaydi? Tep-tekinga oftobda qovurilib o'lib ketmasa kerak, axir?

– Buning qiyin joyi yo'q, hukmdor. Agar biror kigizni suvga bo'ktirib, saksovul daraxtining ustiga tashlansa va uning tagida o'tirilsa, garm sel shamoli muzday shabadaga, jonbaxsh salqinlikka aylanadi.

– Kigiz deganing yana nimasi bo'ldi?

– Kigizmi? Namat. Siz tomonlarda uni «namad» deyishadi, shekilli.

Saratonning jaziramasidan es-hushini yo'-qotayozgan Doro mulohazakorlikni ham unutib, eng katta namatni suvga bo'ktirishni va balandroq saksovulning ustiga yopishlarini buyurdi. Podsho amri vojib. Lashkarning suvi shusiz ham taqchil ekanini, ertaga ulovlar ham, odamlar ham tashnalikdan o'lib ketishi mumkinligini shohga eslatib qo'yishga hech kim jur'at etolmadi.

Haqiqatan ham ho'l namat soyasida o'tirish tanaga rohat bag'ishlab, qaynoq hovur g'ir-g'ir esgan salqin shabadaga aylanib, bu mo'jazgina firdavsmonand xilqat bag'ridan kishining hech ham cho'l jaziramasiga chiqqisi kelmas edi. Lekin har qanday huzur-halovatning ham poyoni bor – hech qancha vaqt o'tmay, bor-yo'q suv zaxiralari tugab bitdi.

Qo'shin qum barxanlarini oshib borgani sari kun qattiqroq qizdirar, otlarning ham, suvoriylar-u piyodalarning ham tinkalari qurib, yemishlari va suvlari oxirlab bo'lgan, lekin hadeganda sahroning oxiri ko'rina qolmasdi. Qaysi tomonga qaramang, qumliklar ufqqacha cho'zilib, na bir giyoh va na bir jonzot ko'zga tashlanadi. Yurishning yettinchi kuniga kelib, zaxiradagi suvlar tugab, bir tishlam luqma ham qolmagach, otlar, xachirlar, odamlar bitta-bitta qulay boshladi. Bir qadam bosishga ham holi qolmagan askarlar «ob, ob» deya zorlanib jon bera boshladilar. Hatto ajallari ko'zlariga ko'rinib turgani sabab, og'izlarini qanday bo'lmasin birozgina namlab, oshqozonlarini jinday aldash maqsadida yo'llarida uchragan qurt-qumursqa bormi, kaltakesakmi, ilon yoki qo'ng'izmi tutib, shartta og'izlariga tiqib, tamshanib chaynashardi. Tashnalik chidab bo'lmas darajaga yetgach, askarlar suvsizlikdan behol qulagan ot-xachirlarni bo'g'izlab, qonini so'rishni boshladilar. Endi ularga nima bo'lsa ham suyuq narsa bo'lsa bas edi. Hatto, so'yilgan jonivorlarning xom go'shtini chaynab, shundan ham biror namlik olishga urinmoqdalar. Hozir es-hushidan ayrilishni boshlagan bu odamlar bir-birlarini so'yib, qon shimishga ham tayyor edilar.

Doro ham meshning tagida qolgan so‘nggi uch-to‘rt qultum suvni yutoqib ichib bo‘lgach, Shiroqni boshlab kelishni buyurdi.

– Hoy, sak o‘g‘li, yetti kunda daraxtzor vohaga chiqib boramiz degan eding, shekilli? Bu qumliklarning oxiri ko‘rinmayapti-ku? Qachon yetib boramiz, turklarning qo‘nal-g‘asiga? Yo‘lda ikki quduq bor, deganding, ularni ham topib berolmading. Sening kasofatingga qolib, askarlarim iniga o‘t tushgan chumolilarday saratonning issig‘idan qirilib ketishyapti-ku!

Suvvizlikdan og‘zi qurib, lablari yorilib ketgan Doroning ovozi xirillab, xuddi pichirlab gapirganday zo‘rg‘a chiqayotgan edi. Shu paytgacha yo‘l bo‘yi bo‘ynini mutelarcha egib kelgan Shiroq Doroning ko‘ziga tik qarab, istilochiga qahr bilan tikildi:

– Ey, bosqinchi podsho. Men seni yurtimga chaqirgan emas edim. O‘zing bostirib kelding bu tuproqqa. Men Vatanimni sening noplak qadaminingdan asrab qolish uchun o‘z qulqburnimni qadrdon do‘stimga kestirib tashladim. Sening ishonchingni qozonib, lashkar-ringni ajal sahrosiga olib keldim. Bu cho‘llarnima uchun Qizilqum deb atalishini bilasanmi? Uning qumlari har qanday yog‘iyning qip-qizil qonini bir zumda shimb olishtga qodir. Sen kabi bosqinchilarining qonidan ol rangga kirgan bu qumlar. Endi hammang

shu yerda qazoyingni topasanlar. Men bu yorug‘ dunyoda qirq yildan sal ortiqroq umr ko‘rdim. Sahro hayotining mashaqqatlarida chiniqqan rafiqam, o‘n to‘rt yashar pahlavon o‘g‘lim, sakkiz yoshli qizalog‘im bor. Ozod el-ulus orasida ular ham tinch-xotirjam umr kechirsinlar, deya men o‘zimni qurbon qilishga jazm etdim. Men o‘limdan qo‘rqmayman. Chunki hayotim farzandlarimning umrida, avlodlarim turmushida davom etib boraveradi. Bu – mening doimo barhayot yashab qolishim demakdir. Senlarni esa kimdir eslagan taqdirda ham la’natlab yodga olishi mumkin, xolos. Biz hozir dashtning qoq o‘rtasida turibmiz – to‘rt tomoningiz ham yetti-sakkiz kunlik yo‘l. Uzog‘i bilan ikki kecha-kunduz orasida lashkar-pashkaring bilan hammang qirilib bitasan. Sen yurtimni istilo qilish uchun mo‘r-malaxday gala-gala qo‘sining bilan turk tuprog‘iga yopirilib kelding. Men esa yolg‘iz o‘zim Doro yetovidagi forslarning son-sanoqsiz lashkarini xalqimning qonini to‘ktirmasdan mahv etdim.

– Lekin sening ham ajaling shu yerda, sak o‘g‘li! Sen o‘zing shu qaynoq qumlar ichida itday o‘lib ketasan, jasadning esa oxirgi bor ko‘rgan jonzotlar shu cho‘ldagi qurt-qumursqalar bo‘ladi! – Shiroqning so‘zlari ayni haqiqat ekanini ich-ichidan his etgan Doro uning yuziga uch-to‘rt marta achchiq-

achchiq qamchi tortib yubordi.— Mana bu turkbachchani qiymalab tashlanglar! — deya sarbozlariga buyurdi. Keyin qahr bilan Ranosbatga yuzlandi: — Itdan tarqagan Ranosbat! Sen nega og‘zingga tosh solganday jim bo‘lib qolding? Bu kasofatni huzurimizga boshlab kelgan o‘zing eding-ku?! «Bundan ko‘ra sadoqatliroq malayni topolmaymiz. Bitta oltin tanga uchun bola-chaqasini otonasiga qo‘shib sotib yuborishga tayyor. Uni yaxshilab taftish qildim, birorta yolg‘on so‘zi yo‘q. Rost aytayotganiga o‘zim kafilman», deganding. Endi bizlarni ajaldan o‘zing qutqar, la’nati lashkarboshi! — Doro Ranosbatning basharasiga ham bir necha marta qamchi tortib yubordi. — Agar bu sakistonlikni hoziroq najot yo‘limizni ko‘rsatishga ko‘ndirmasang, qorningni yorib, sakning kallasini oshqozoningga tiqib qo‘yaman.

Qo‘rquvdan, alamdan va qahr-g‘azabdan o‘t bo‘lib yonib turgan Ranosbat avvaliga jahlini bosgan bo‘lib, bu qumliklardan olib chiqib ketishini so‘rab, jasur yilqichiga yalinib-yolvordi. Keyin esa behisob boyliklarni va’da qilib, aldab-avrashga urinib ko‘rdi. Endi bu o‘lkalarga bundan buyon birorta eronlik jangchi oyoq bosmasligiga qasam ham ichgan bo‘ldi. Lekin barcha bu urinishlari besamar ketgach, vahshiy sirtlondan battar quturib ketdi. U Doroning qilichidan o‘lsa

ham, tashnalikdan jon bersa ham, baribir ajali azobli bo'lishini o'ylab, qo'rquvdan es-hushini yo'qotib qo'ygandi. Birinchi bo'lib o'zi Shiroqning bo'yniga qilich urdi. U katta bir qudratli sultanat podshohining inongan vaziri, ulkan qo'shining sarkardasi, xufiya ishlarning piri kaloni bo'la turib, qanday qilib oddiy bir otboqarga aldanganini o'ylagani sari fig'oni falakka chiqayotgandi. So'ng Shiroqning atrofini qurshab turgan askar-larga ishora berdi. Ajalning qaynoq nafasini his etib, jonlari ko'zlariga ko'rinish, talvasaga tushib qolgan alamzadalar har tomondan tashlanib, jasur cho'ponga qilich selpiy boshladilar. Shiroq esa hayotining so'nggi onlarida ham Vatan jamolini, ayolining mehrli jilmayishini, farzandlarining shodon kulgilarini xotirlaganicha, yuzida samimiy bir tabassum bilan jon taslim qildi.

Dashtning yana bir kunlik jaziramasi ortda qolgan paytda Doroning ko'p ming kishilik lashkaridan ikki yuz yo uch yuz chog'lik askarlar tirik qolgan edi, xolos. Ular ham o'z o'limlarini bo'ynilariga olib, qum ustiga yuztuban yiqilib yotgan paytlarida, baxtlaridan bo'lib, uzoq ufqda qop-qora bulutlar karvoni ko'zga tashlandi. Ahyon-ahyonda olovli shamshiri bilan osmon ko'ksiga tig' urib, bulut tog'larini guldurab faryod ko'tarishga majbur etayotgan chaqmoqlar

esa, bu qora ummonlar o‘zi bilan yomg‘ir olib kelayotganidan dalolat berib turardi. Kechga tomon bulutlar o‘lim talvasasiga tushib yotgan askarlarning tepasiga kelib, ularning ustiga jonbaxsh tomchilarni tashlay boshladi. Kimdir qalpog‘ini, kimdir sovutini, yana biri qalqonining botiq tomonini, qay birlari etigini, kavushi yoki hatto, oyog‘idagi uvadasi chiqqan paytavasini ham yomg‘irga tutib, tiriklik suvini bir qultumgina bo‘lsada, tutib qolishga urinardi. Kuchsizgina tomib turgan yomg‘ir bir necha daqiqalar ichida rosmana jalaga aylanib ketdi. Qop-qora bulut tog‘lari bu yerda – cho‘l o‘rtasida ko‘p ham ushlanib qolmasdi, albatta. Ammo, bir otni sug‘orgulik vaqt ichida yog‘ib o‘tgan yomg‘ir suviga hamma idishlar-u mesh-meshaklar, etiklar-u qalpoqlar limmo-lim to‘lib, o‘zini ajal ixtiyoriga topshirayozgan odamlar va hayvonlarga xuddi qayta tug‘ilganday, yangidan jon kirdi. Allaqaqachon hayotdan umidini uzib qo‘ygan Doro ham darhol podsholik rutbasiga o‘randi. Lashkar yo‘lboshlovchilari tunda yulduzlarning joy-lashuviga, kunduzlari quyoshning haraka-tiga qarab, o‘zлari kelgan tomon sari qo‘shinlarni boshlab, yo‘lga tushdilar. Doro va lashkarboshi Ranosbat yana askarlarga dadil-dadil buyruq berishga o‘tdi. Endi suvlari mo‘l bo‘lgach, lashkar qoldiqlarining ortga

qaytishi ham unchalik qattiq mashaqqat bilan kechmadi. Yo'l ozig'iga esa, nobud bo'lgan ot-xachirlarning go'shtini g'amlab olishgandi.

Omad bilan tasodif yonma-yon yurarkan shekilli, cho'ldan chiqib olgan kunlarining ertasiga fors lashkarlari o'n besh kun avval Eronga jo'natib yuborilgan bo'linmaga duch kelib qoldi. Ma'lum bo'lishicha, bosqinlarda orttirilgan o'ljalar yuklangan ot-tuyalar karvoni Eron zamini tomon ketib borayotgan paytda turk qabilalarining allaqanday Shak-qut ismlik yo'lboshchi yetovidagi birlashgan muhofazachilarining kattagina bo'linmasiga duch kelib qolibdi. Ikki o'rtadagi olishuv paytida qochib qolishga ulgurganlardan yigirma-o'ttiz chog'lik kishi tirik qolib, uch-to'rtta aravadagi hamda bir nechta ot va tuyalarga ortilgan yukni ham asrab qolishga muvaffaq bo'lishibdi. Arava, ot, tuyalarga joylangan yuklar orasida oziq-ovqat, oltinkumush, qurol-yarog' va safar uchun zarur boshqa buyumlar ham borligi forslarning jonlariga oro kirdi. Tajovuzkor Doro o'zining qolgan-qutgan odamlari bilan ming mashaqqatlar chekib yurtiga yetib olgach, ancha vaqtgacha bosqinchilik urushlari olib borishga yuragi dov bermay yurdi...

---

## XOTIRA

Cho'ponlar tungi gulxan atrofida gurunglashib o'tirgan vaqtvari yaqin o'rtada allaqanday zorlanib ingragan tovush eshitildi. Qarashsa, qari saksovulning tagida ikki kun avvalgi jang payti jarohatlangan yoshgina fors askari qoniga belanib yotibdi. Eroniy qo'shin ortga qaytayotgan paytida uning o'z sheriklari: «Bu baribir manavi og'ir jarohati bilan uzoqqa bormaydi, bizga tirik tovon, ortiqcha nasibaxo'r bo'ladi», deb aravadan tepib tushirib ketishibdi.

Sahro kishilari kechirimli bo'lishadi — ular kek saqlamaydilar, gina-kuduratlnarni tez unutishadi, kulfatda qolganlarni hech qachon benajot qoldirmaydilar. Eronlikni ham davolab, tez orada oyoqqa turg'azib yubordilar. U o'z yurtiga — xiyonatkor quroldoshlarining yoniga qaytishni xohlamay, shu yerda qolish istagini bildirib, qabila ulug'larining ijozatlarini oldi. Xurshed ismli ana shu yigit eroniylar bosqinining inqirozi tafsilotlari yuzasidan chaqirilgan katta xonjamanada oddiy bir otboqarning qahramonligi bayonini — Shiroqning jasoratini yangi eltdoshlariga boshdan oyoq so'zlab berdi. Doroga elchi yuborish va unga

qullik ta'zimini bajo keltirish qarorini qabul qilgan qabilaboshilar va urug' kattalari o'sha yerning o'zida oqsoqollik chakmonlarini yechib, barcha lavozim hamda vakolatlarini topshirdilar, boshlarini xam qilganlaricha yig'inni tashlab, sharmandalarcha davradan chiqib ketdilar...

Xonjamanadan so'ng Shakqut boshchiligidagi Zo'ro'z, Xurshed, o'spirin To'nga va qabiladoshlardan yana olti-yetti kishi cho'l ichkarisiga safarga otlandilar. Yigirma kunlar o'tib, Shiroqning jasadini mazgilga olib kelishdi. Dafn marosimi o'tib bo'lganidan keyin urug'boshilar o'z huzurlariga To'ngani chorlab, nima tilagi bo'lsa aytishini va bu tilakni, albatta, bajo keltirishlarini bildirdilar.

– Mening bittagina tilagim – otamning tayog'ini qo'limga olib, yilqichilik qilish va kimning qanday yumushi bo'lsa yordam berish, xolos. Onam va singlim uchun kunda bitta non topib kelolsam kifoya. Qolgani esa Yashiq Tengrisi buyurganicha bo'ladi.

Zo'ro'z To'ngani qattiq bag'rige bosdi va otlar uyuri tomon boshladi.

– Mayli, bolam, sen nima desang shu bo'ladi. Yur, men senga otang haqida, bobolaring haqida bilishing lozim bo'lgan bir qancha narsalarini so'zlab beraman. Endi eran

bo'lding, oilaga bosh, onangga tayanchsan. Shuning bilan birga zimmangda O'g'log'u bobong vasiyati ham bor.

- O'g'log'u bobom kim, Zo'ro'z amaki?
- U sening qismating, o'g'lonim...

## BOLALIK

– Zo'ro'z, kel dengizda quloch otib-quloch otib cho'milamiz.

- Dengiz nima?

– Ulkan, bepoyon suv. Oxiri ko'rinnmaydir. Suv tomchilari cho'ldagi qum zarralaridan ham ko'p.

- Sen buni qayoqdan bilasan, Shiroq?

- Kattalar so'ylashganlarida eshitganman.

– Men esa O'kuzni va Yaksart suyini eshitganman.

- Ular dengizdan kichik.

– Sen dengizda suzamiz deysan, bizda bunday suv yo'q-ku. Keyin ikkovimiz ham suvda suzishni bilmaymiz.

– Agar erta tongda ko'm-ko'k osmonga uzoq tikilib yotsang, o'zingni xuddi cheksiz dengizda suzib borayotganday his etasan. Kel, sen ham qumga cho'zilib, ko'kka tikilgin, o'zing ko'rasan.

– Biram maza-ya! Sen dengiz bo'yida yashashni xohlarmiding?

– Uni bir marta bo'lsa ham ko'rishni orzu qilaman. Lekin, o'tovimizdan olisda yashashni istamagan bo'lardim. Men dashtning isini hamma narsadan afzal bilaman.

– Otamning aytishicha, hozir sen va men to'qqiz yoshda ekanmiz. Ulg'ayib, er yetsak, karvonlarga qo'shib, ehtimol olis-olis o'lkalarni ko'rishimiz ham mumkin ekan. Shunda balki ikkovlashib dengizga ham borarmiz.

– Bilmasam... Eh, katta suvlarni bирgina marta tushimda ko'rsam ham mayli edi. Shugina kifoya.

– Nega endi faqat tushingda?

– Aytdim-ku, shu turobdan hech ham olislag'im kelmaydi. Bunda otamning hidi bor. Shuni qonib-qonib hidlab olaman-da, so'g'in to'yib-to'yib yig'layman. Otamni eslayman. Undan uzoq ketsam, sog'inib-sog'inib, qo'm-sab-qo'msab o'lib qolaman.

– Bo'pti, agar men ulg'ayib, dengizni ko'rsam, senga u haqda so'ylab-so'ylab beraman. Xuddi o'zing ko'rganday qilib so'ylab beraman.

– Sen mening eng yaxshi qo'ldoshimsan, Zo'ro'z.

– Sen ham, Shiroq.

---

## MUNDARIJA

So'zboshi .....	3
Rivoyat .....	6
Ko'chki .....	7
Olg'a, tulporlarim! .....	10
Yalavoch yilqichi .....	20
Vidolashuv .....	22
Bosqinchilar qarorgohida .....	25
Qasam .....	28
Turlar udumi .....	38
Yantooq guli .....	44
Qismat .....	49
Taftish .....	50
Doro huzurida .....	54
Jasorat va halokat .....	61
Xotira .....	70
Bolalik .....	72

*Adabiy-badiiy nashr*

Alisher Sa'dulla

## **SHIROQ**

(Qissa)

Muharrir *L. Igamova*

Rassomlar *I. Xolxo'jayev, M. Aglamov*

Badiiy muharrir *H. Mehmonov*

Texnik muharrir *D. Gabdraxmanova*

Musahhih *X. Salohutdinova*

Kompyuterda tayyorlovchi *F. Tugusheva*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.09.

Bosishga 2013-yil 4-iyunda ruxsat etildi.

Ofset qog'oz. Bichimi  $84 \times 108^{\frac{1}{32}}$ .

«School Book» garniturasida ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 3,99.

Nashr tabog'i 3,86. Adadi 2000 nusxa.

Buyurtma № 13-241.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz)

[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)

4000 yell.

## Sa'dulla, Alisher

S-12 Shiroq: qissa / A. Sa'dulla; muharrir L. Igamova. – Toshkent: O'zbekiston, 2013. – 76 b.

ISBN 978-9943-01-914-0

UO'K: 821.512.133-3

KBK 84(50')

Qadim Turon zaminida azal-azaldan ko'plab buyuk ulug' sarkardalar, fidoyi qahramonlar yashab o'tganlar. To'mor (yunon: To'maris), Spitaman, Shiroq kabi ko'plab qahramonlar xotirasi hali-hanuz elimiz tomonidan ardoqlanib, yod etib kelinmoqda. Ularning jasoratlari haqida ko'plab hikoyatlar, rivoyatlar ijod etildi, yozuvchilar, shoirlar, adiblar tomonidan romanlar, dostonlar, qissalar bitildi.

Xalqimizning suyukli qahramoni Shiroqning jasorati haqidagi ilk ma'lumotlar yunon tarixchisi Poliyenning sakkiz kitobdan tarkib topgan «Strategmalar» («Harbiy hiylalar») nomli asarida bayon etilgan.

Miloddan avvalgi VI asrda yashagan Shiroq bobomiz Turon tuprog'ini istilo etishga uringan axomaniylar podshosi Doro I ning ko'p ming kishilik lashkarini yolg'iz o'zi mahv etib, sak(shak) qabilalarini istibdod zulmidan asrab qolgan, el-yurt ozodligi yo'lida jonini qurban qilgan.

E'tiboringizga havola etilayotgan qissa muallifi mard va jasur xalq qahramoni Shiroqning hayot yo'li, maqsad-istaklari, fidoyilik, vatanparvarlik tuyg'ularini aks ettirish orqali ulug' bobokalonimizning timsolini yoshlarga namuna sifatida gavdalantiradi. Ushbu asar kamol topib kelayotgan avlodni xalqparvar, o'z Vataniga, el-yurtiga sadoqatli, erkli hayotning, hurriyatning qadrini baland bilguvchi insonlar etib tarbiyalashda bir saboq bo'lib xizmat qiladi.

· ПАССЫЛКА ·